

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

Qo'lyozma huquqida
UDK 811. 512. 133.

Solixo'jaeva Havasxon Zokirjonovna

**Namangan shahri mikrotoponimiyasining
tarixiy-lisoniy tadqiqi**

5A220102 – Lingvistika (o'zbek tili)

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:

N. Uluqov,
filologiya fanlari doktori

Namangan – 2014

M u n d a r i j a

Kirish	4
I bob. Namangan shahri mikrotoponimiyasining lisoniy tadqiqi masalalari	7
1.1. Namangan viloyati toponimiyasining tarixiy manbalari va tadqiqi	7
1.2. Isohqon Ibratning Namangan mikrotoponimiyasi haqidagi talqinlari	15
I bob bo'yicha xulosalar	22
II bob. Namangan shahri mikrotoponimlarining lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari	23
2.1. Namangan polisonimi	23
2.2. Namangan shahri mikrotoponimiyasining umumiy tavsifi va tasnifi..	31
2.3. Namangan shahri mikrotoponimiyasining lisoniy taraqqiyoti va takomillashuvi	36
2.4. Namangan shahri mikrotoponimlarining nominativ-motivasion xususiyatlari	43
II bob yuzasidan xulosalar	51
III bob. Shahar mikrotoponimlarining etimologik xususiyatlari va struktural tasnifi	52
3.1. Namangan shahrining tarixiy mikrotoponimlarining etimologik xususiyatlari	52
3.2. Mikrotoponimlarining strukturasi va modellari	64
III bob bo'yicha xulosalar	69
Umumiy xulosalar.....	70
Adabiyotlar.....	72
Ilova. Namangan shahri mikrotoponimlari ro'yxati	77

Kirish

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Prezidentimiz I.A. Karimov to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi".¹ Bu fikrlar, albatta, xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, falsafiy mushohadasi va qarashlari mahsuli bo'lgan joy nomlari – toponimik merosga ham taalluqlidir.

Toponimlar – Yerning hozirda yoki o'tmishda mavjud bo'lgan hamda muayyan o'rnashgan joyi bilan tavsiflanadigan, kelib chiqishi tabiiy yoki sun'iy bo'lgan yaxlit va nisbatan barqaror hosilalari".² Shu bois toponimlar, xususan, mikrotoponimlar o'zi nomlayotgan hudud tarixi, geografiyasi, tabiati, etnografiyasi, aholisining etnik tarkibi, yashash tarzi haqida darak beruvchi lisoniy xazinadir.

Buni Prezidentimiz I. A. Karimov mustaqillik yillarida Namangan shahrida ro'y bergan o'zgarishlarni quyidagicha ta'kidlagan edilar: "Takror aytmoqchiman, bugun Namangan tuprog'ida yuz berayotgan va ko'zga tashlanayotgan yangilanishlarni, Shahar va qishloqlarimizning shakli, qiyofasi tobora o'zgarib,

¹ Каримов И. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 2008. — Б. 29-30.

² Ўзбекистон Республикасининг "Географик объектларнинг номлари тўғрисида"ги Қонуни // Халқ сўзи, 2011, 13 октябрь, № 198. — Б. 1.

birinchi navbatda, odamlarimizning madaniyati, ongu tafakkuri yuksalib borayotganini hech kim inkor eta olmaydi”.¹

Mustaqillik yillarida O'zbekiston hukumatining yangi toponimik siyosati, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotda amalga oshirilgan islohotlar natijasida respublikaning boshqa hududlaridagi kabi Namangan shahri mikrotoponimiyasida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi.

Shahar mikrotoponimiyasida yuz bergan ana shunday o'zgarishlarni lingvistik aspektda tadqiq etish o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir. Shu nuqtai nazardan mazkur dissertatsiya mavzusi dolzarblik kasb etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirga qadar o'zbek toponimikasida Toshkent, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Jizzax, Samarqand, Farg'ona viloyatlari, Toshkent, Samarqand, Marg'ilon Shaharlari toponimiyasi ancha Chuqur o'rganilgan, biroq Namangan viloyati toponimlari, jumladan, Shahar mikrotoponimlari to'la to'planmagan, A. Muhammadjonov, S.Qoraev, N.Oxunov, N.Uluqov, A.Aliev, T.Nu'monov, B.Turdaliev, A. Faxriddinov, S.Tulakov va boshqalarning ayrim tadqiqotlarini e'tiborga olmaganligi lingvistik nuqtai nazardan monografik tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning maqsadi. Namangan shahri mikrotoponimiyasining tarixiy va zamonaviy shakllarini, variantlarini to'plash hamda ularni lisoniy tadqiq etish dissertatsiyaning asosiy maqsadidir.

Tadqiqotning vazifalari. Ishning mavzusi mohiyati va maqsadidan kelib chiqib, tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

1. Namangan shahri mikrotoponimiyasi tadqiqiga doir ishlarning tahlilini berish.
3. Shahar mikrotoponimiyasining nomlanish tamoyili va asosiga ko'ra, ya'ni lug'aviy-ma'noviy tasniflash.
4. Mikrotoponimlarning tarixiy-etimologik, xronologik jihatdan tahlil qilish.
5. Mikrotoponimlarning strukturasi va yasalish modellarini izohlash.

¹ Каримов И. А. Қонун ва адолат устуворлиги эркин ва фаровон ҳаёт кафолатидир// Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – Б. 11.

Tadqiqotning ob’ekti va predmeti. Mustaqil izlanishlar, dialektologik ekspeditsiyalar asosida to’plangan 1000 dan ziyod Namangan shahri mikrotoponimlari dissertatsiyaning tadqiq ob’ekti hisoblanadi.

Namangan viloyati oykonimlarining tarixiy manbalari, nominativ-motivatsion, lug’aviy-ma’noviy xususiyatlari, strukturasi va yasalish modellari ishning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va tadqiq usullari. Ishda O’zbekiston Respublikasining til siyosati, jumladan, toponimik siyosati: joy nomlarini tartibga solish, o’rganish bo’yicha qabul qilgan qaror va farmonlari hamda «Davlat tili haqida»gi Qonun talablariga tayanilgan holda ish ko’rildi.

Nazariy masalalar tadqiqida jahon toponimikasi, jumladan, turkiy toponimika, xususan, o’zbek toponimikasidagi tadqiqotlardan, ulardagi nazariy-ilmiy metodologik xulosalar va tadqiq usullaridan foydalanildi.

Ishda qiyoslash, lug’aviy-ma’noviy, nominativ va motivatsion, etimologik tahlil metodlaridan foydalanildi. To’plangan materiallar diaxron va sinxron yo’nalishda o’rganildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. O’zbek toponimikasida ilk bora Namangan shahri mikrotoponimlarining nomlanish tamoyillari, lug’aviy-ma’noviy xususiyatiga ko’ra tasnifi va tavsifi berildi hamda tarixiy-lisoniy xususiyatlari tadqiq etiladi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Namangan shahri mikrotoponimlarining o’rganish ma’lum nazariy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Dissertatsiya xulosalari va tadqiq usullaridan boshqa hududlar mikrotoponimiyasini o’rganishda, o’zbek toponimikasiga oid darslik va qo’llanmalar yozishda, oliy va o’rta maxsus o’quv yurtlarida Namangan shahri mikrotoponimiyasi bo’yicha maxsus kurslar o’qishda, shuningdek, geografiya fakul’tetlarida «Toponimika» fanini o’qitishda, tarix fakul’tetlarida «Tarixiy o’lkaShunoslik», akademik litsey va maktablarda ona tili darslarida atoqli otlar, xususan, joy nomlariga doir mavzularni, tarix, geografiya fanlarini o’qitishda, «Namangan shahri toponimlari izohli lug’ati» tuzishda foydalanish mumkin.

Ishning sinovdan o'tishi. Dissertatsiya Namangan davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrası yig'ilishi (2014-yil 22-aprel) da muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Dissertatsiya natijalarining e'lon qilinganligi. Ilmiy tadqiqot ishining asosiy mazmuni NamDU, SamDU ilmiy to'plamlarida e'lon qilingan 5 ta maqolada o'z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 80 bet.

1-bob. Namangan shahri mikrotoponimiyasining lisoniy tadqiqi masalalari

1.1. Namangan viloyati toponimiyasining tarixiy manbalari va tadqiqi

Farg'ona vodiysi, jumladan, Namangan viloyati geografik nomlari haqidagi ilk yozma manba muallifi noma'lum "Hudud ul-olam" (X asr) asaridir. Shuningdek, Shamsiddin Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ahmad ibn Abu Bakr al-Muqaddasiyning "Hasan at-Taqqosim", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Isoqxon Ibratning "Tarixi Farg'ona" asarlari ham Namangan viloyati toponimiyasi tarixiy manbalaridir.

Arab geografi va sayyohi Muqaddasiyning "Ahsan at-taqqosim fi ma'rifat al-aqolim" ("Iqlimlarni o'rganish uchun eng yaxshi qo'llanma") nomli asarida Farg'ona vodiysidagi 40 Shahar qatorida *Axsikat*, *Koson*, *Bob (Pop)* Shaharlari ham tilga olingan.¹ Bu hozirgi Axsikent, Kosonsoy, Pop oykonimlari qadimiy va tarixiyligidan dalolat beradi. Boshqa tarixiy manbalardagi mazkur oykonimlarga doir izoh va qaydlar ham fikrimizni tasdiqlaydi.

¹ Бу ҳақида қаранг. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б.122-123

Muallifi noma'lum ilmiy manbalarda qisqacha "Hudud ul-olam" shaklida tanilgan "Kitob hudud ul-olam min al-mashriq ila-l-mag'rib" (982-983) asari ham Namangan viloyati toponimiyasining tarixiy manbalaridan biri hisoblanadi.¹

Asarda viloyat toponimiyasiga mansub *Xatlom* (hozirgi Norin) daryosi, *Bob* (hozirgi Pop), *Axsikat* (hozirgi Axsi) kabi tarixiy toponimlar kuzatiladi. Kitobning "Daryolar haqida so'z" nomli qismida *Xatlom* daryosiga quyidagicha izoh beriladi. "Yana biri Xatlom daryosi. Moniso tog'idan, Xallux va Yag'mo o'rtasidagi chegaradan boshlanadi. Xatlom shahridan oqib o'tib, Bob yaqinigacha boradi va O'zgand daryosiga quyiladi".² Bu o'rinda keltirilgan **Bob** – hozirgi Pop shahri, Pop tumanining markazi. Shuningdek, kitobning boshqa o'rinida mazkur shaharga oid quyidagi qayd kuzatiladi: "Kasho'kas, Pob – ikkita obod shaharcha, ekinzorlari ko'p.

Mazkur shaharlar barchasi Farg'ona nohiyatiga mansub".³

Bu ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Demak, mazkur manbada hozirgi **Pop** oykonimi *Bob*, *Pob* kabi variantlarda uchraydi.

Risolaning "Movarounnahr nohiyati va undagi shaharlar haqida so'z" qismida hozirgi Axsikent oykonimi *Axsikat* shaklida berilib, quyidagicha izohlangan:

"Axsikat – Farg'onaning qasabasi, amir va mas'ul a'yonlarning qarorgohi erur; katta Shahar, Xashart daryosi bo'yida joylashgan; tog' etagida".⁴ Xashart aynan hozirgi Sirdaryo.

Kitobni X asrda yozilganligini e'tiborga olinsa, Namangan viloyati toponimiyasiga mansub Pop, Axsi oykonimlarining qadimiyligi, tarixiyligi anglashiladi.

Boburning "Boburnoma" asarida Axsi (Axsikat), *Arxiyon* (hozirgi Ayqiron), *Koson* (hozirgi Kosonsoy shahri), *Sang*, *Gunbazi Chaman*, *Karnon*, *G'avo* (hozirgi G'ova), *Pop*, *Navkand* (hozirgi Navkent), *Poshxoror* // *Bishxoror* (hozirgi Peshqo'rg'on), *Norin* kabi oykonimlar keltirilgan. Mazkur asar viloyat

¹ Худуд ул-олам. – Тошкент: O'zbekiston, 2008. – 64-б.

² Ўша асар, 9-б.

³ Ўша асар, 16-б.

⁴ Ўша асар, 15-б.

toponimiyasiga oid ayrim oykonimlarning tarixiy shakllarini, etimologiyasini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.¹

Ibratning «Farg'ona tarixi» asari Namangan viloyati oykonimlariga oid tarixiy manbalardan biridir. Biz quyida u haqida batafsil fikr yuritamiz.

Namangan viloyati hududi eng qadimgi aholi yashagan va joylashgan maskanlardan biri hisoblanadi.

Aholining o'troq hayot kechirishi va dastlabki sug'orma dehqonchilik to'g'risidagi ma'lumotlar e.a. VI-VII asrlarga borib taqaladi. Bu vaqtlarda Farg'ona vodiysida siyosiy-ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markaz rolini Koson shahri (hozirgi Kosonsoy) o'ynagan. Eramizning birinchi asridan boshlab Farg'ona Buyuk Kushon imperiyasi tarkibiga kirgan va uning markazi Koson shahri bo'lgan.

Rus istilolari va sho'rolar davrida ham viloyat chegaralari, tumanlari soni bir necha bor o'zgargan. Jumladan, 1920-yillardagi ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda uezd, pristavlik, volost', qishloq va ovul jamoalari bo'lgan. Namangan uezdi Farg'ona viloyati tarkibidagi muhim ahamiyatga ega hudud hisoblanib, 1925 yilgi ma'lumotlarga qaraganda quyidagi volostlar (bo'lislar)ni o'z ichiga olgan: *Olmos, Aysi – Shaxand, Asht, Bobodaxon, Varzik, Koson, Kapa, Qirg'izqo'rg'on, Nanay, Pop, Pishqaron, Tergachi, To'raqo'rg'on, Uychi, Xonobod, Chodak, Chortoq, Chust va Yangiqo'rg'on.*²

Viloyatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan Namangan uezdi dastlab 26 ta volost, 131 ta qishloq jamoalariga bo'lingan.³ 1897-yili unga Chust uezdi ham birlashtirilib, Namangan uezdi tarkibidagi volostlar soni 29 taga, qishloq jamoalari esa 151 taga yetdi.⁴ 1924-yilga oid arxiv hujjatida ko'rsatilishicha ular quyidagilar edi: *Arim, Qiziljar, Qirqugul, Saroy, Susamir, Mustur, Chotqol, Qutlug' Said, Bag'ish, Boyaston, Olmos, Aysi-Shahand, Asht, Bobodaxon, Varzik, Koson, Kapa, Qirg'izqo'rg'on, Nanay, Pop, Pishqo'rg'on, Tergachi, To'raqo'rg'on, Uychi,*

¹ Каранг. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарк, 2002. – 336 бет + 32 бет зарварақ.

² Список населённых мест Узбекской ССР и Таджикской АССР. Выпуск III. Ферганская область. – Самарканд, 1925. – С. 1-4.

³ Қосимов Ў. Наманган воҳасини суғорилиш тарихидан. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 45.

⁴ Мирзалиев Э.Ю., Базарова М.Т. Наманганнинг XI аср охири – XX аср бошидаги социал-иқтисодий ва маданий рикожланиши. – Наманган. 1998. – Б. 7.

Xonobod, Chodak, Chust, Chortoq, Yangiqo'rg'on kabi.¹ Dalillardan ko'rinadiki, yirik ma'muriy hududlar, a'ni o'tmishdagi volost va uездlar, hozirdagi viloyat va tuman aholi maskanlari: qishloq va Shaharlarning nomlari bilan atalgan. Chunonchi, hozirda Namangan viloyatining 11ta tumanidan 9 tasi oykonimlar bilan atalgan: *Pop, To'raqo'rg'on, Uychi, Chortoq, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy, Chust, Namangan, Uchqo'rg'on* kabi. Bu toponimiyada keng tarqalgan holat. Demak, o'zbek tili toponimiyasida, xususan, Namangan viloyati oykonimiyasida an'ana mavjud.

Namangan viloyati toponimiyasi tarix, geografiya, qisman tilshunoslik fanlari nuqtai nazaridan o'rganilgan. Chunonchi, Namangan viloyatining siyosiy-ma'muriy xaritasi yaratilgan², geografiyasi, tarixi, iqtisodiyotiga oid ishlar yozilgan.³ Ayniqsa, Namangan viloyati geografik tarixi, iqtisodiy geografiyasi Chuqur tadqiq etilgan.⁴ Y.Uzoqov, A.Aliev tomonidan Namangan viloyati toponimiyasiga oid ayrim joy nomlari etnonimlar va antroponimlar asosida vujudga kelgan toponimlarga ajratish asosida leksik-semantik, grammatik jihatlari qisman yoritilgan.

Y.Uzoqov, A.Aliev Namangan toponimlarini quyidagi ikki guruhga ajratib tekshirish mumkin deb ko'rsatadilar:

1. Etnonimlardan vujudga kelgan toponimlar.
2. Antroponimlardan tashkil topgan toponimlar.

Maqolada *Axsi//Axsikent, Namangan, Olvalizor, G'alaqozon, Langar, Langarbobo, Sardoba//Saddava* kabi toponimlarning etimologiyasi, nomlanish asosi tahliliga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, G'alcha, Yoshiq (Yashiq) etnotoponimlari atroflicha izohlangan, Namangan polisonimi haqidagi tarix, geografiya, tilshunoslik sohasidagi barcha qarashlar tahlil qilingan. Lekin toponimlarning, jumladan, oykonimlarning o'simlik nomi bilan (*Qayrag'ochovul,*

¹ НВДА, 13-фонд, 1-рўйхат, 36-иш, 49-варақ.

² Наманганская область (справочная политикоадминистративная карта). –Ташкент, 1996.

³ Наманган вилояти // Ўзбекистон вилоятлари, Қорақалпоғистон (маълумотнома). – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1995. Б.147.; Абдуллаев О. Наманган вилояти (табиати, аҳолиси, хўжалиги). – Наманган, 1995. – Б. 49-57.

⁴ Қаранг. Акрамов З.М. Наманганская область. Историко-географический очерк. – Ташкент, 1954.; Ўша муаллиф. Наманганская область. Экономико-географический очерк. – Ташкент, 1955.

Tollik, Jiyda, Beshtol, Bodomzor), hayvon va parranda nomi bilan (*Qush, Bo'ritepa, Eshakbel*), suv ob'ektlari nomi bilan atalgan (*Uyg'ursoy, Norin, Konsoy, Qorasuv, Qaranko'l, Soyovul*) turlari e'tibordan chetda qolgan. Maqolada toponimlar grammatik jihatdan sodda va murakkab toponimlarga, murakkab toponimlar o'z ichida qaysi so'z turkumiga mansub so'zlarning qo'shiluvidan tashkil topganligiga ko'ra olti guruhga bo'lingan.¹

B. Turdaliev, T. Nu'monov, A. Haydarovlar tomonidan Namangan viloyati toponimiyasiga oid salmoqli materiallar to'plangan va alohida kitob holida nashr etilgan. Mazkur izohli lug'at xarakteridagi kitobda 450 ga yaqin Namangan viloyati toponimiyasiga oid qishloq, shahar, shaharcha, mahalla, ko'cha, dala, tepalik, maydon, suv ob'ekti nomlari atalish, leksik-semantik, grammatik, dialektologik jihatdan tahlil qilingan.

Namangan toponimiyasiga oid mazkur kitobda 100 dan ortiq oykonimlar izohi berilgan. Unda *Baliqchi, Kenagas, Nayman, Naymancha, Tatar qishlog'i Uyg'ur qishlog'i, Cho'nbag'ish, Qirg'izmahalla* kabi etnotoponimlar ham izohlangan. Kitob so'ngida Namangan viloyati joy nomlarining o'zbekcha-ruscha-inglizcha lug'ati ham berilgan,² biroq bunda viloyat toponimlari to'la o'z ifodasini topmagan.

Maqsad-mohiyatiga ko'ra aynan Namangan toponimlari, jumladan, oykonimlari tadqiqiga bag'ishlangan bo'lmasa-da, S.Qoraev, T.Nafasov, N.Oxunov kabi toponimist olimlarning ishlarida ham ayrim oykonimlar o'rganilgan. Jumladan, T.Nafasovning toponimlar tadqiqiga oid risolasida *Uychi, Bag'ish, Arbag'ish, Navkent* kabi oykonimlarning nomlanish tarixi, ma'nosi, etimologiyasi yoritilgan.³

S.Qoraev ishlarida ham ayrim Namangan viloyati oykonimlariga lisoniy izoh berilgan.⁴ Shuningdek, Namangan viloyati toponimiyasi, jumladan, oykonimiyasiga oid so'nggi yana bir tadqiqot S.Qoraevning lug'at-ma'lumotnoma

¹ Узоков Ё., Алиев А. Наманган топонимикасидан // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1966. – Б. 91.

² Қаранг. Турдалиев Б., Нуъмонов Т., Ҳайдаров А. Наманган вилояти топонимларидан материаллар. – Наманган, 1995. – Б. 105-121.

³ Нафасов Т. Қишлоғингиз нега шундай аталган? – Тошкент: Фан, 1989. – Б.100.

⁴ Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – Б.203.

xarakteridagi kitobidir.¹ Mazkur kitobda respublikamiz viloyatlari qatorida Namangan viloyatiga ham alohida o'rin ajratilgan. Dastlab Namangan viloyati toponimlariga umumiy va statistik tavsif berilgan. Unda viloyatning geografik joylashuvi, undagi tuman, shahar, shaharchalarning miqdori va nomlari, ya'ni oykonimlar berilgan, yirik toponimlar ko'rsatilgan, biroq qishloq fuqoro yig'inlari, qishloq nomlari qayd etilmagan.²

Toponimik tavsif xarakteridagi mazkur tadqiqotning keyingi qismlarida viloyat toponimlarining qaysi tilga mansubligiga ko'ra qisqa tasnifi va izohi berilgan, etnotoponimlar, **qo'rg'on**, **obod** indikatorlari asosida shakllangan oykonimlar haqida fikr yuritilgan. Tadqiqot so'ngida *Alish*, *Axsikat*, *Bo'ston*, *Varzik*, *Guldirov*, *Mashad*, *Nanay*, *Norinkapa*, *Chodak*, *Chortoq*, *Yashiq*, *Qayqi* kabi 37 ta oykonimlar, asosan, qishloq nomlarining lisoniy izohi berilgan. Ayrim toponimlarning izohi keng, atroflicha berilgan holda, ba'zilar qisqa va yuzaki izohlangan. Bu hol *Kengsoz*, *Marg'izor*, *Chodak*, *Selxona*, *Qo'g'ay* oykonimlari tahlilida kuzatiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, S.Qoraev viloyat toponimiyasiga oid hozirgi *Axsikent* oykonimini tarixiy *Axsikat* shaklida izohlagan. Aksincha *Axsikent* nomini lug'at maqolasi sarlavhasiga chiqarish va uni izohlash jarayonida tarixan *Axsikat* shakliga egaligini ta'kidlash lozim edi. Shuningdek, olim «Viloyatning qisqacha toponimik lug'ati»da Chortoq tumaniga xos *Aktitosh* oykonimini keltirgan. Aslida tuman toponimiyasida bunday oykonim kuzatilmaydi.

Namangan oykonimlarini o'rganishda Nosirjon Oxunovning ilmiy ishlari ham alohida o'rin tutadi. Uning toponimlar izohiga oid risolasidan viloyatimizdagi *Jo'gabo'yi*, *Iskavot*, *Kattayaydoq*, *Ko'lyoqa*, *Mirzaorol*, *Navkent*, *Pansada*, *Peshqo'rg'on*, *Pastkizang* kabi 28 ta qishloq nomlarining keng izohi o'rin olgan.³

Nosirjon Uluqovning “O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi” mavzuida doktorlik dissertatsiyasida tarixiy asarlar, O'zbekiston Respublikasi voha va vodiylari sug'orilish tarixiga oid ilmiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar, tabiiy-

¹ Qoraev S. Namangan viloyati toponimlari // Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б.91-94.

² Qoraev S. Ўша асар, 93-бет.

³ Охунов Н.Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б.86.

geografik xaritalar, suv xo'jaligi xaritalari, viloyatlar, tumanlar tarixiga oid ilmiy-ommabop, ilmiy asarlar, entsiklopedik, toponimik lug'atlar, dialektologik ekspeditsiya natijalari asosida to'plangan materiallar 3000 dan ziyod gidronimlar va gidrotoponimlar doirasida 1000 dan ziyod Namangan viloyati gidronimlari, gidrotoponimlari, jumladan, Shahar toponimlari ham tadqiq etilgan.¹

Namangan viloyati toponimiyasiga oid B.Abdurahmonovning ham bir necha maqolalari e'lon qilingan. U Namangan toponimlarining motivlanish asoslarini o'rganib, bu jihatdan ularni uch guruhga ajratadi:

1. Motivlanish yuzaga chiqib turgan toponimlar: *Mevazor, Jiyda, Tatar, Suvburg'on* kabi.

2. Motivlanish yuzaga chiqmagan, faqat etimologik jihatdan aniqlash mumkin bo'lgan toponimlar: *Alami, Soku, Mishan, Mamay, Rezak, Marg'izor* kabi.

3. Aldamchi motivlanishga ega bo'lgan toponimlar: *Dumor, Gulqishloq, Gurtepa, Baliqchi* kabi.² Bizningcha, tadqiqotchi *motivlanish yuzaga chiqmagan, aldamchi* terminlari o'rnida **motivlanishi ko'rinib turmaydigan, aldoqchi** birliklarini qo'llashi to'g'riroq bo'lardi.

A.Faxriddinov tomonidan ham Namangan viloyati toponimiyasini o'rganishga harakatlar bo'lgan. Tadqiqotchining *Axsi, Axsikent* toponimlari haqidagi maqolasida *Axsi, Axsikent* tarixiy oykonimlarning etimologiyasi, nomlanishi tamoyillari tahlil qilingan.³

A.Faxriddinov, Q.Muhammadjonovlar hamkorlikda Namangan polisonimi haqida ham maqola e'lon qilgan.⁴

Chortoq tumanidagi Guldirov qishlog'i haqida H.Sulaymonovanning maqola va ommabop risolasi e'lon qilingan.⁵ Muallif Guldirov oykonimi etimologiyasi haqida fikr yuritib, nom o'zbekcha taqlid so'z – «guldur» va fors- tojikcha «ob» –

¹ Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010.

² Абдурахмонов Б. Наманган топонимларининг мотивланиш асослари // Ўзбек тилшунослигига оид тадқиқотлар. – Тошкент, 1994. – Б.88.

³ Қаранг. Фахриддинов А. Ахсикент сўзи ҳақида // Ўзбек тилининг лексик-семантик ва грамматик хусусиятлари масаласига доир. – Наманган, 1995. – Б.111-115.

⁴ Муҳаммаджонов Қ., Фахриддинов А. Яна Наманган топонимининг этимологияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1992, 6-сон. – Б. 53-54.

⁵ Сулаймонов М., Сулаймонова Ҳ Гулдиоровми – Гулдиروبми? // Маърифат, 2005, 5 октябрь;

«suv» so'zlari qo'shiluvidan yasalgan, uning etimoni «*guldiraydigan suv*» tarzidagi so'z birikmasi degan xulosani beradi. Uning fikricha, til taraqqiyoti davomida oykonim talaffuzida tovush o'zgarishi ro'y berishi natijasida hozirgi shaklga kelib qolgan.¹ Haqiqatan, bu fikrlar asosli. Oykonim nomlanish tamoyiliga ko'ra gidrooykonimlar sirasiga mansub bo'lib, uning lisoniy shakllanish jarayoni quyidagicha: *guldur* > *ob (guldiraydigan suv)* – *guldurob* > *Guldurob* > *Guldirov*. Demak, qishloq hududidagi gidro ob'ektlariga va suvning oqim xususiyatiga nisbat berish asosida nomlangan. Namangan viloyati toponimiyasi, jumladan, oykonimlarining tadqiqi, tumanlar tarixiga oid ommabop, ilmiy-ommabop, publitsistik xarakterdagi kitoblarda ham kuzatiladi.²

Namangan viloyati tumanlari tarixiga oid mazkur kitoblar hudud toponimlari, jumladan, oykonimlarining tarixiy shakllarini, variantlarini to'plashda manba bo'lib xizmat qila oladi.

Tuman tarixiga oid bu kitoblar orasida Uchqo'rg'on, Namangan, Yangiqo'rg'on, Chortoq tumanlari tarixi anchayin mukammalligi, ma'lumotlarning boyligi bilan xarakterlanadi. Kitoblarda asosan oykonimlarning geografik joylashuvi, tarixiy shakllari, qisman toponimik ma'nosi haqida ma'lumotlar berilgan. Chortoq tumani tarixiga oid kitobda *Chortoq, Koroskon, Ayqiron, Qorabog', Qoramurt, Saroy, Peshqo'rg'on*; Yangiqo'rg'on tumani tarixiga oid kitobdagi *O'zak, Zarkent, Mamay, Nanay, Kalishox, Navkent, Qorapolvon*; Namangan tumaniga oid kitobda *Axsikent, Toshbuloq, Qoratepa, G'alcha, Qurama, Xonobod* va Uchqo'rg'on tumani tarixidagi bir qator mahalliy oykonimlar haqidagi izohlar fikrimizni tasdiqlaydi, biroq bu ma'lumotlarning barchasi ilmiy asoslanmaganligi, toponimlarning, uning asosiy bir turi oykonimlarning to'la qamrab olmaganligi, toponimik ma'lumotlarning mukammal

¹ Сулаймонова Х. Гулдилов қишлоғи. – Наманган: Наманган, 2005. – Б.48.

² Қаранг. Жамоа. Наманган туманининг ўтмиши ва бугуни. – Тошкент: Университет, 1996. – 150 б.; Қирғизов Ю., Акрамов Т. Бир ўлкаки... (Янгиқўрғон тумани тарихидан лавҳалар). – Наманган, 1996. – 222 б.; Жамоа. Чортоқ тумани тарихи. – Тошкент: Университет, 1995. – 222 б.; Иномов Ш. Попим — саховатли юртим. – Наманган, 1996. – 94 б.; Жамоа. Учқўрғон тумани (маълумотнома). – Учқўрғон, 1995. – 164 б.; Жамоа. Чуст тумани тарихи. – Чуст, 1995. – 180 б.; Сайхун, Содик. Бугун кечанинг эртаси. — Тўрақўрғон, 1992. – 48 б.; Раҳимова М.В. Косонсой тарихидан лавҳалар. – Косонсой, 1996. – 40 б.; Абдурахмонов. М. Задарёнома. – Жомашўй, 1992. – 48 б.

emasligi, izohlarning qisqaligi bois tuman tarixiga oid manbalarda mahalliy toponimlar, oykonimlar to'la aks etgan, o'rganilgan degan xulosani bermaydi. Albatta, buni manbalarning kamchiligi, nuqsoni deb ham bo'lmaydi. Sababi yuqorida keltirilgan tuman tarixiga oid ishlar tilshunoslik, uning bir tarmog'i toponimikaga oid asarlar emas.

Shunday bo'lsa-da, tuman tarixiga oid manbalarda hudud toponimlari, ayniqsa, oykonimlari to'la aks etsa, ularning nomlanish tamoyillari, tarixi, nomning etimologiyasi va boshqa lisoniy xususiyatlari yoritilsa, uning ilmiy qiymati ortadi, mazmun-mundariyasi mukammallashadi.

1.2. Isohqon Ibratning Namangan mikrotoponimiyasiga oid talqinlari

Isohqon Ibratning “Tarixi Farg’ona” asari aynan vodiy tarixiga bag’ishlanganligi, o’zida keng ko’lamli materiallarni jamlaganligi bilan tarixiy va ilmiy nuqtai nazardan diqqatga molik.

Isohqon Ibrat ma’rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, ilk matbaachi, publitsist, mohir pedagoggina emas, tarixshunos olim ham bo’lgan. Olim Sharq tarixchilarining asarlari bilan bir qatorda Yevropa va rus sharqshunoslari, jumladan, V. V. Radlov, V. V. Bartold, H. Vamberi, V. P. Nalivkin asarlarini o’rgandi va yuzdan ortiq mo’’tabar tarixiy manbalardan, ilmiy asarlardan foydalandi hamda ularga tanqidiy-ijodiy yondashdi.¹ Aniqrog’i, olim G’arb tarixshunosligi an’analarini chuqur o’rganadi va undan o’z ilmiy faoliyatida samarali foydalanadi. To’plangan tajribalar asosida “Tarixi Farg’ona”, “Tarixi madaniyat”, “Mezon ul-zamon” kabi tarixiy asarlar yaratadi. Ibratning “Tarixi Farg’ona”, ayrim manbalarda esa “Farg’ona tarixi” deb yuritiladigan asarida Qo’qon xonligining vujudga kelishidan to XX asrning 30 yillarigacha bo’lgan davr yoritilgan. Ayniqsa asarda O’rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va u keltirgan fojialar keng yoritilgan. Muallifning asarlari tarix fani nuqtai nazardangina emas, bir necha fanlarga oid mo’’tabar manbadir. Bu asarlar yurtimiz, xususan, Farg’ona vodiysi tarixi, geografiyasi va etnografiyasini, olim

¹ Қаранг. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Тошкент: Шарқ, 1994. – Б.33-35.

hayoti va ijodini, ilmiy faoliyatini, pedagogik-ma'rifatparvarlik qarashlarini o'rganishda ham muhim tarixiy manbadir. Ibrat tilshunos, tarixchi va geograf olim sifatida Farg'ona vodiysi, undagi shahar va qishloqlarning to'la tarixiy, geografik tavsifini, nomlanish xususiyatlarini, geografik nomlarning tarixiy variantlarini, yuzaga kelish tarixi va etimologik talqinlarini bergan. Shu bois "Tarixi Farg'ona" asari Farg'ona vodiysi, xususan, Namangan viloyati tarixiy toponimiyasining o'rganishda ham alohida ahamiyatga ega. Asar tili va uslubining soddaligi, xalqchilligi bilan xarakterlanadi. Olimlar fikricha, muallifning yana bir yutug'i shundaki, u o'z asarini sodda, o'sha davr adabiy til me'yoriga to'la rioya qilgan holda yaratgan. Uslubi, tasvirlash doirasining kengligi jihatidan Ibratning "Tarixi Farg'ona" Boburning buyuk "Boburnoma" asari ta'sirida yozilgani sezilib turadi.¹

Asarning "Ta'rixi Namangon" nomli bobida *Namangan* polisonimi, *Sardoba*, *Labbaytog'a*, *Degrezlik*, *Kosonsoy*, *To'raqo'rg'on* kabi oykonimlar xususida tarixiy nuqtai nazardan fikr yuritilgan. Biz ana shu manbaga tayangan holda Ishoqxon Ibratning toponimik talqin va qarashlari xususida fikr yuritmoqchimiz.

Namangan astionimi haqida Ibrat ham anchayin atroflicha fikr yuritib quyidagilarni yozadi: "*Namangan yangilik jihatidinmu yoki biz ahli islom diniy kitoblarga ahamiyat berub, tarixlarga ahamiyat yo'qligi sabablu, bu Namangong'a hech kim ravshan tarix qilmagan ekan. Bu sababdan bir kitob ko'rilmaydi. Qariyalar og'zidan og'iz eshitilub, haddi tavoturga yetub, yonida bo'lak qilu qol bo'lmay, hammani masmu'i bo'lgan ravshan so'zlar bilan ado qilinadur. Chunonchi, bu Namangon asli namangon emasdur. Forsiy lafzi birla namakon – namak kondur. Muni ma'nisi shu ekanki, bizni Chig'atoy tilida asli gon yo'q ekan, bu shevai forsiydur. Chiqaytoyda kon yoki g'on yo qon bo'ladur. Bu lafzi gon konni oson qilibdur. Yoki forsiylar ixtiloti va ham buyoni lafzi forsiy uchun gon deb mashhur va bu lafzda mazkur bo'ldi. Chunonchi, Namangon avvali holda, ya'ni munda to'qqiz yuz yil ilgari yerlarda hech kim bo'lmay yotgan biyobon - ko'ltuz bo'lib, ul vaqtda Buxoro xonliklaridan Abdullohxon bu*

¹ Долимов У. Ўша асар, 43-бет.

Farg'ona taraflariga kelib, har yerga goh sardobalar kavlab, saqqoyi mo'miningga chohlari tepasiga gumbazlar qilib, ko'b xalqg'a kaflik ishlarni qilgan xon ekan. Ul kishi bul Namangonni yeriga kelib, alholda sardoba degan madrasa bordur // bir Chust va bir aminlik mahalladur, ul yerga tushub, darhol sardoba kavlatib, necha kunlar tutub, bir tarafli daryo va bir taraf tog' havosi yaxshi uchun bu yerga bir shahar bino qilmoq bo'lub o'z ichlaridan bir og'oliq mansabida turgan kishini amr qilib, shahar qilmoq bo'lganda, o'shal yerni daryo tarafi butun sho'r ko'l bo'lub yotgan tuz ekan. Binobaron, namak kon deb, ya'ni tuz kon deb atagan ekan. Bu namak kon lafzini forsiyda gon qilib yozub, namakkonni namangon deb, bir nuni zoida ilan namangon bo'ldi, asli namakkondur.¹ Ibrat "Namangan toponimi "namak kon", ya'ni "tuz koni" birikmasining davrlar davomida sayqallanish mahsuli degan xulosaga keladi. Uning fikricha, Namangan polisonimining etimoni tuz koni, sho'r ko'l ma'nosidagi namak kon birikmasidir.

Namangan shahri markazida sardoba va unga nisbat berib atalgan Sardoba mahallasi bo'lgan. **Sardoba** ilmiy manbalarda izohlanishicha, sun'iy suv inshootidir. Sardoba fors-tojikcha bo'lib, «sovuq», «muzdek», «salqin» ma'nolarini anglatuvchi **sard** so'ziga suv tushunchasini anglatuvchi fors-tojikcha **ob** so'zini va unga narsa-predmet oti yasovchi **-a** qo'shimchasining qo'shiluvidan yasalgan: *sard+ob+a > sardoba*. O'zbek tilidagi izohli lug'atlarda sardoba «usti gumbaz shaklidagi g'isht qurilma bilan berkitilgan sun'iy hovuz» deya izohlangan.²

Ibratning «Farg'ona tarixi» asarining «Tarixi Namangon» bobida shahardagi Sardoba oykonimi haqida quyidagicha ma'lumot beriladi: «...Buxoro xonlaridan Abdullohxon bu *Farg'ona* taraflariga kelib, har yerga goh sardobalar kavlab, saqqoyi mo'mininga chohlarni tepasiga gumbazlar qilib, ko'b xalqg'a naflik ishlarni qilgan xon ekan. Ul kishi bul Namangonning yeriga kelib, alholda sardoba degan madrasa bordur, // bir Chust va bir aminlik mahalladur, ul yerga tushub, darhol sardoba kavlatib, necha kunlar tutub, bir tarafi daryo va bir taraf

¹ Ибрат. Ўша асар, 325-бет.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: Рус тили, 1981. – II т. – Б. 22.

tog' havosi yaxshi uchun bu yerga bir shahar bino qilmoq bo'lub o'z ichlaridan bir og'oliq mansabida turgan kishini amr qilib, shahar qilmoq bo'lganda, o'shal yerning daryo tarafi butun sho'r ko'l bo'lub yotgan tuz ekan...».

Olim boshqa bir o'rinda: «*Namangan tarixi Abdullohxon tarixidur. Abdullohxonni tarixi «zamona xarob»dur, ya'ni to'qqiz yuz oltinchi hijriyda bo'lubdur. Bu Namangan to'rt mahalla bo'lub, birinchi mahalla Sardoba mahallasidurki, avvali Abdulloh sardoba bino qilgan yeridur*», – deb yozadi.¹ Ibratning ko'rsatishicha, Namangan shahri tarixi Buxoro xoni Abdullohxon tarixi bilan boshlangan. U hozirgi Namangan shahriga kelib, hijriy taqvimga ko'ra 906 yilda, milodiy sana bilan 1500-yillarda sardoba qurdirgan, biroq bu sardoba bizgacha yetib kelmagan, buzib yuborilgan. Ana shu sardobaga nisbat berib, uning atrofidagi Namanganning eng katta to'rt mahallasidan biri **Sardoba** va shu joydagi madrasa (hozirda masjid) **Sardoba** deb atalgan. Bu nom hozirgacha yashab kelmoqda. Demak, mazkur manbaga ko'ra Namangan shahrining Sardoba mahallasi 500 yillik tarixga ega.

Ibrat Namangan shahriga mansub *Labbaytog'o*, *Degrezlik*, *Chuqurko'cha*, toponimlarining shakllanishini esa talqin etadi: “*Ikkinchi mahallasi Labbaytog'oduki, ani vajhi tasmiyasi mulla Bozor oxund degan kishi bor ekanlar, ul kishining bir jiyanlari bor ekan. Har ikki aziz o'rtalari ovoz yetadurgon masofat ekan. Goho jiyanlarini chaqirganlarida javoban tog'alariga “labbay tog'o” deb ovoz berganlarida aksar kishilar ul mahallani “labbaytog'o” deb atab “labbaytog'o” musammo bo'lgan mahalladur. Bir mahallasini “Chuqur ko'cha” derlarki, ul Namangonni hamma ko'chasidin chuqurroq uchun Chuqurko'cha tasmiya bo'lgan. Va bir mahallasi Degrezlikdurki, ul hamma shaharlarda bor bir jamoa qazon quyadurgonlar kelib joylashgan bir mahalladur.*”²

Demak, Ibrat fikricha, Namangan shahridagi *Labbaytog'a* toponimi oddiy hayotiy voqeaga, *Chuqurko'cha* toponimi esa aholi manzilining geografik

¹ Ибрат. Тарихи Фарғона. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 325-326.

² Ибрат. Фарғона тарихи. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 326.

tuzilishiga nisbat berish asosida, *Degrezlik* nomi mahalla aholisining kasb-korini e'tiborga olish asosida yuzaga kelgan.

Ibrat o'zi tug'ilgan yurt – *To'raqo'rg'on* oykonimining nomlanish tarixi haqida ham fikrlarini bayon qilgan: «*Bu Namangon atrofida bo'lgan qasabotlari ijmolani yozmoq lozim bo'ldi. Bulardan Namangonning g'arbida bir bozorlik qasaba bu muallif vatani asliysidurki, muni Dashti qipchoq xonlaridan Ahmadxon, ya'ni Shig'ayxon bino qilgan ekan. Ul vaqt muarrixlari Ahmadxon ismiga qal'a qilib, Qal'ayixon deb ism qo'yub, bu lafz binosiga ta'rix bo'lgan ekan, 861-nchi hijriyda bino bo'lgan ekan. Ammoki, To'raqo'rg'on demak ma'nosi – Shig'ayxonni Yusuf To'ra va Ya'qub To'ra degan o'g'illari bino qilib, Shig'ayxon tarafidan Qal'ayixon ism qo'ysalar ham, ularni ismlariga To'raqo'rg'on deb shuhrat bo'lgan edi*».

Shuningdek, olimning mazkur asarida tahlil qilinmagan bo'lsa-da, *Chust*, *Chortoq* oykonimlari ham tilga olingan: «*Bu Namangonni hokimig'a qarashli to'rt qasobot bo'lub, **To'raqo'rg'on, Chust, Chohartog', Koson** degan yerlar bo'lub, har biri bir beklik yer edi*». Lekin *Chust*, *Chahortog'* (hozirgi *Chortoq*) oykonimlari haqida keng ma'lumot berilmagan.

Ishoqxon Junaydullo xo'ja o'g'li Ibrat Kosonsoy toponimining yuzaga kelish motivi, lug'aviy asosi va tarixi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: «*Kosonning vajhi tasmiyasi Kosong'a mo'g'ul zamonida bo'lg'on binolar alholda mavjud, ammoki, Koson demak Shul ekanki, arablar tarafidan madaniyati arabni mahkam qilmoq uchun Bag'dod shahridan o'n ikki sulton laqablik kishilar kelib, diyini Muhammadiyani intishor qilmoqda, ilm o'rgatmoqda bo'lub Kosonda turgan ekanlar. Kosoniylar alarni hurmat qilib, o'zlari forsiy sug'd tili ilan sultonlar zikr qilgan kason deb zikr qilur ekanlar. Kason demak kishilar demak. Forsiyda bu alfoz ko'b aytilub ismi Kason bo'lib ketgan ekan. Chunonchi, o'shal sultonlar birlari sulton Jaloliddin Somoniy, ya'ni G'o'zapoya mozordagi gunbazda yotgan kishidurlar. Ikkinchilari Qalmoq arig'i bo'yida gunbazda yotgan sulton Muhammad qozi degan kishi. Bo'laklari atrofi Kosondadurlar*». Boshqa bir o'rinda: «*Bu Namangonni hokimig'a qarashli to'rt qasobot bo'lub, To'raqo'rg'on,*

*Chust, Chahortog', Koson degan yerlar bo'lib, har biri bir beklik yer edi», – deb yozadi.¹ Demak, Ibrat fikricha, Koson toponimi kishilar ma'nosidagi «kason» so'zi asosida shakllangan, keyinchalik so'zning birinchi bo'g'inidagi *a* unli tovushi o'ga aylangan: *kas* – «kishi» + *on - lar* > *kason* > *Kason* > *Koson* kabi. Bizningcha, bu ancha sodda talqin. Shaharning tarixi va u yerdagi tarixiy-arxeologik yodgorliklar *Koson* (hozirgi *Kosonsoy*) polisonimi *Kushon* so'zining lisoniy taraqqiyoti mahsuli degan xulosaga kelish imkonini beradi. Kosonsoy toponimi qadimgi xitoy manbalarida *Kesay*, *Gessey* shaklida qayd etilgan. Toponimist olimlarning ko'rsatishicha, *Koson* toponimi *Kushon* podsholigi nomi bilan bog'liq.² Tarixchi olim A.Muhammadjonov fikricha, *Koson* toponimi *kos* (*kot*) – «qishloq», «*Shahar*» so'zidan olingan bo'lishi ham mumkin.³*

Ibratning asari 1925-yilda yozib tugatilganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, Shahar ana Shu davrga qadar ham *Koson* deb atalgan. Yuqorida keltirilgan dalillardan anglashiladiki, *Kosonsoy* juda qadimiy shahar bo'lib, o'tmishda *Koson* deb atalgan, hozirgi shakli keyingi taraqqiyot mahsuli.

Tarixda shahar haqiqatda *Koson* deb atalgan. Shahar o'rtasidan Chotqol tog' tizmasidan Chilquduqsoy nomi bilan boshlangan soy oqib o'tadi.

Koson shahridan oqib o'tgan soy o'rniga nisbat berib, ***Kosonsoy*** deb atalgan. Aniqrog'i, *Kosonning* soyi birikmasi til taraqqiyoti jarayonida *Koson* soy shakliga, undan *Kosonsoy* tarzidagi morfemik tuzilishiga ko'ra qo'shma tarkibli gidronimga aylangan. Keyinroq soy nomi o'zining shakllanishi uchun asos bo'lgan shahar nomi (polisonim)ga o'tdi, ya'ni *Koson* shahri *Kosonsoy* deb atalgan 1926-yil 29-sentyabrda markazi *Kosonsoy* shahri bo'lgan tuman tashkil etilgach, u ham shu nom bilan atala boshlangan. Albatta, tumanni nomlashda aynan 1926-yil 29-sentyabrda Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida tashkil etilgan tumanlarni o'zaro farqlash omili ham asos bo'lgan. Shu bois Qashqadaryo viloyatidagi tuman va shahar *Koson*, Namangan viloyatidagi tuman va uning markazi *Kosonsoy* deb atalgan. Biroq Namangan viloyati mahalliy shevalarida keksalar nutqida

¹ Ибрат. Фарғона тарихи. Мерос. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 282-327.

² Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – Б. 68.

³ Мухаммаджонов А. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. – Тошкент. Фан, 1972.

toponimning *Koson* shakli ham faol qo'llanadi. Shuningdek, shahardagi sanatoriya, suv ombori ham *Kosonsoy* deb ataladi. Yuqoridagilardan anglashiladiki, dastlab shahar nomi soyning nomlanishi uchun, keyin soy nomi shahar va tumanning nomlanishi uchun asos bo'lgan.

Ibratning toponimik tahlillari asosan xalqona etimologiyaga asoslangan. Shunday bo'lsa-da, *Labbaytog'a*, *Chuqurko'cha*, *To'raqo'rg'on* toponimlari talqini ancha mantiqli, *Koson*, *Namangan* oykonimlariga oid qarashlar munozarali va o'ta sodda, ilmiy jihatdan munozarali.

Tahlillardan ko'rinadiki, Ibratning «Farg'ona tarixi» asari o'z mazmun-mohiyati bilan tarix, geografiya, etnografiya, tilshunoslik fanlariga oid tarixiy manba bo'lib, Namangan viloyati toponimiyasining tarixiy variantlarini, xalqona etimologik talqinlarini, nominativ-motivatsion xususiyatlarini tadqiq etishda ham ahamiyatga ega.

I bob bo'yicha xulosalar

1. O'zbek tilshunosligida toponimiyaning nazariy va amaliy masalalari keng, Chuqur o'rganilgan, makro hamda mikrotoponimlarning tarixiy va zamonaviy variant hamda shakllari to'plangan. Mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasining toponimik siyosati, yangi qabul qilingan Qonun toponimlarni o'rganish va tartibga solish borasida toponimika oldiga dolzarb, yuksak vazifalarni qo'ydi.

2. Shahar mikrotoponimiyasi tizimidagi o'zgarishlarni jiddiy o'rganish, yirik, mukammal Namangan mikrotoponimilarning imlo, izohli va etimologik lug'atlarini yaratish galdagi dolzarb vazifalardir.

3. Namangan shahri toponimiyasini o'rganish borasidagi tadqiqotlar tahlilidan ko'rinadiki, ayrim maqola va tarix, geografiya sohasidagi ishlarni e'tiborga olmaganda jiddiy monografik aspektda o'rganilmagan.

4. Shahar mikrotoponimiyasida oykonimlar boshqa toponim turlariga nisbatan salmoqli o'rin tutadi hamda kundalik muloqotda, rasmiy doiralarda faol qo'llanishi, ijtimoiy-siyosiy omillar ta'sirida o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi.

5. Hududga mansub toponimlar o'zi nomlayotgan hudud aholisiga xos etnik, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, lisoniy ma'lumot va axborotlarni ifodalashi, davrlardan-davrlarga, avlodlardan-avlodga olib o'tishi bilan qimmatlidir.

II bob. Namangan shahri mikrotoponimlarining lug'aviy- ma'noviy xususiyatlari

2.1. Namangan polisonimi xususida

Astionim termini ham grekcha bo'lib, «*shahar nomlari*» degan ma'noni anglatadi. Toponimikaga oid tadqiqotlarda astionim terminiga sinonim sifatida **polisonim** (grekcha polis – shahar – onoma – nom) termini ham qo'llanadi.¹ Demak, Shaharlarning atoqli nomi astionim, polisonim deb yuritiladi.

Namangan qadimiy shaharlardan biri. Namangan shahrining o'rta asrlarga oid tarixi deyarli o'rganilmagan. Bunga asosiy sabab shaharga doir yozma manbalarning yo'qligi yoki bo'lsa ham hali ham topilmaganligidir.

Shaharining nomlanishi haqida Ishoqxon Ibrat, venger sharqshunosi A. Vamberi, V. V. Bartold, akademik Y. G'ulomov, prof. Z. M. Akramov, tarix fanlari nomzodi A. Juvonmardiev, geografiya fanlari doktorlari H. Hasanov va S. Qoraev, tilshunos olimlar Yo. Uzoqov, A. Aliev, T. Nu'monov, B. Turdaliev hamda akademik A. Muhammadjonovlarning fikr va qarashlari mavjud.

Arxeolog I. Ahrorov boshchiligida shaharning Namangansoy atroflarida, Chorsu qismida hamda Xo'jamning qabri maqbarasida o'tkazilgan qidiruv ishlari Namangan shahri soy sohilidagi qishloq sifatida X asrlarda ham mavjud bo'lganligini ko'rsatgan.

Bobur «Boburnoma» asarida birgina o'rinda Namangan nomini tilga oladi: *“Ertasiga g'animning ustiga yurub, topmay, so'ngicha kelib, Arxiyon qo'rg'onini yovuq qabamoqning salohin topmay, bir shar'isida G'aznayi Namangonga tushuldi.”*²

Akademik V. V. Bartold “Turkistonning sug'orilish tarixi” asarida quyidagilarni yozadi: “Farg'onaning shimol tomonining hozirgi katta shahari Namangan XVII asrda Axsi atrofida qishloq bo'lgan edi. (Muhammad Ibn Vali: 108-varaq: 2-bet)”

¹ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 18.

² Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.74.

V. P. Nalivkinning so'ziga qaraganda, bu shahar birinchi marotaba hijriy 1053 (melodiy 1643) -yildagi vaqfnomada tilga olinadi, hijriy 1172(melodiy 1758) -yildagi vaqfnomada esa birinchi marotaba Namangan viloyati deb qayd etiladi.

A.Aliev *gon* formantini suv, daryo deb taxmin qilgani tufayli, bu nomdagi -*gan* qismiga asoslanib, Namangan - sho'r suv, mineral suv, moyli suv (ehtimol neft) deb izohlab ko'radi. Bundan tashqari, olim «Naman» asosi biror etnonimga (Nayman) bog'liq bo'lib chiqishi ham mumkin, deb hisoblaydi.

A. Juvonmardiev esa Namangan to'g'risida shunday yozadi: "1502-yili Buxoro xoni Abdullaxon Xurosonni bosib olganda juda ko'p asirlarni Farg'onaga keltiradi. O'sha vaqtda Namanganning hozirgi o'rnida Langarbobo mozoridan boshqa hech nima bo'lmagan. Ba'zi rivoyatlarda aytilishicha, Abdullaxon bu yerga 130 asirning oilasi bilan ko'chirib kelib, Langarbobo mozori atrofiga joylashtirgan emish. Ana shuning natajasida tashkil topgan qishloqni keyincha «Namakkon» deb ataganlar. Namangan aslida «Namiygan» bo'lib, nomiy (forscha) aziz va nomdorlar (atoqli kishilar) ma'nosini anglatga kerak, degan xulosaga kelamiz".¹

Prof. Z. M. Akramov «Namangan» maqolasida: "Namangan so'zi XVI asrdan boshlab ishlatilgan, asli tojikcha Namakkon – tuz koni ma'nosini bildiradi," – deb yozadi.²

Akademik Yahyo G'ulomov Namangan shahrining nomlanish va bunyod etilish tarixi haqida quyidagilarni yozgan: «Namanganning tarixini bilishga oblastimizdagina emas, balki respublikamiz mehnatkashlari qiziqadilar. Ammo shaharning tarixi to'g'risida xalq og'zida har xil afsonalar aytilib yuradi. Uning nomini xalq hozirgi til etimologiyasiga solib «*Namakkon*» (tuz koni) va shunga o'xshash ma'nolar berishga urinadilar. Lekin bundan hech nima chiqmaydi. Chunki Namangan ismi ham Ho'qand, Marg'ilon, Andigon (Andijon), Koroskon, Oyqiron va shu singari juda qadimgi arxaik ismlardan bo'lib, ularga ma'no berib bo'lmaydi.

¹ Жуванмардиев А. Шаҳарларнинг номларидан баҳс // «Ер ва эл» журналі, 1962, №4. – Б.196.

² Каранг. Акромов З.М. Наманган. –Ташкент: Известия, 1955, I том. – С.148.

Namangan shahri tarixda XVIII asrdan beri ma'lum. Shu sababli ba'zi bir tarixchilar Namanganni shu XVIII asrning o'zida barpo bo'lgan deb ataydilar. Lekin bu xato tushunchadir. Shahar nomining arxaikligining o'zi uning shu atrofdagi qadimgi qishloqdan biri sifatida mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.¹ Namangan astionimining etimologiyasi haqida Q. Muhammadjonov, A. Faxriddinovlar qo'yidagi fikrlarni bildiradilar: «Namangan toponimi asli Nayman – kent//kand shaklida bo'lib, yillar o'tishi, qabilalar aralaShuvi, talaffuzda atamalarni ixchamlashtirishga intilish, soddalashtirish qonuniga ko'ra Naymankand (kand//kent) > Na (y)mankent > Namankan(t) > Namankan > Namank(g)an > Namangan – «*Naymanlar shahri*» ma'nosida ishlatilgan. Namangan etnonimidagi *gon, kon* elementlarining biror narsa qazib olinadigan kon so'ziga aloqasi yo'q. U qadimgi sug'd tilidagi *kand // kant // kent* – shahar, qishloq, yashash joy ma'nosini anglatishi jamoachilikka ma'lum. Kand//kant//kent so'zlarining: kon, kat, gon // gan shaklida o'zgarib talaffuz etilishi etnotoponimlarda keng tarqalgan hodisa.²

B.Turdaliev, T.Nu'monov, A.Haydarovlar ham yuqoridagi fikrlarga tayanadilar.³

Namangan viloyati toponimlari haqida fikr yuritgan Yo. Uzoqov, A. Alievlar ham astionim haqidagi o'z tahlillarini Yahyo G'ulomovning yuqorida berilgan fikrlarini xulosa o'rnida keltirish bilan yakunlaganlar.⁴

“Namang – marjon”, “Namangon – marjon koni” tariqasidagi izohlar ham bor. Yuqorida keltirilgan turli talqinlarga asoslangan Y. Qosimov “Namangan”ga nisbatan *qora marvarid, marjon yoxud ko'zmunchoq* tayyorlovchi-larga nisbatan aytilgan deyish bilan birga, yana ramziy jihatdan “*qora ko'zlilar yurti*” degan ma'noda o'z talqinini keltiradi.⁵

¹ Гуломов Я. Наманган (тарихий справка) // “Сталин ҳақиқати” газетаси, 22 июль, 1956.

² Қаранг. Яна Наманган ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, Тошкент, 1992. – № 6. – Б. 54.

³ Қаранг. Турдалиев Б., Нуъмонов Т., Ҳайдаров А. Наманган вилояти топонимларидан материаллар. – Наманган, 1995. – Б.47.

⁴ Қаранг. Узоқов Ё., Алиев А. Наманган топонимикасидан // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1968. – Б.92-93.

⁵ Расулов А. “Наманган” этимологиясига оид... // Наманган тарихидан лавҳалар. – Наманган, – Б. 6.

Albatta, yuqorida keltirilgan fikrlar Namangan shahri va uning nomi qadimiyligidan dalolat beradi.

Abdullahad Muhammadjonov Namangan toponimini ayrim tarixiy manbalarga tayangan holda quyidagicha talqin qiladi: “To’raqo’rg’onli ma’rifatparvar Ishoqxon Junaydulloh o’g’li Ibratning “Farg’ona tarixi” nomli kitobida bayon etilishicha, Namangan shahri qad ko’targan muzofot qadimda bir taraf daryo, ikkinchi tarafi esa tog’ etaklari adirlariga tutashib ketgan kimsasiz biyobondan iborat bo’lgan. Daryo tarafi butkul sho’r ko’l bo’lib yotgan tuz ekan. Ibratning yozishicha, bu yerlar Buxoro hukmdori Abdulloxon davrida (1557-1598) o’zlashtirilib, obod etilgan. Uning farmoni bilan to’rt mahalladan iborat shahar bino qilingan. Mahallalardan biri “Sardoba”, ikkinchisi “Chuqurko’cha”, uchinchisi, aholisining kasb-kori bo’yicha, “Degrezlik”, ya’ni *qozon quyuvchilar* mahallasi deb yuritilgan. To’rtinchi mahallasi esa, tub joyli aholi tili bilan “Labbay tog’a” deb, aslida qamishzor suvbo’yi bo’lgani sababli “Labobi to’qay” nomi bilan yuritilgan. Shahar mahallalarining daryo tomoni sho’r ko’l bo’lib, doimo oppoq tuz bilan qoplangan yerlardan iborat bo’lgani sababli Shahar “Namakkon”, ya’ni “Tuzkon” deb atalgan, keyinchalik “Namakkon” nomi “Namangan” shaklida yuritilib ketgan ekan.

“Namangan” toponimi ilk bor XVII asr qo’lyozma manbalaridan Mahmud Valining “Bahr ul asror fi manoqib ul-ax’yor” asarida Aysi shahriga tegishli qishloqlardan biri sifatida qayd etiladi. Tarixiy ma’lumotlarning guvohlik berishicha, Farg’ona vodiysining bu qadimgi poytaxti – Axsikent 1620-yilda sodir bo’lgan kuchli zilzila oqibatida vayron bo’lgan. Shu boisdan shahar aholisi Namangansoyning quyi oqimida joylashgan yerlarga ko’chib o’tgan. Natijada, soy etaklarida Axsikat muzofotiga tegishli bir qishloq qad ko’tarib, keyinchalik u shaharga aylangan.

“Namangan” atamasi qanday shaklda tilga olinmasin, u uch komponentli – toponimdir. Uning so’z yasovchi bosh bo’g’ini – “Na(v)”, o’rta bo’g’ini, ya’ni atamaning asosi – “man” va oxirgi bo’g’ini, ya’ni atamaning sifatdosh suffiksi “gan” yoki “gon” kabi uch shakladagi alohida-alohida tugal fikr anglatuvchi

leksemalardan iborat. Namangan toponimini shakllantirgan “na(v)”, “man” va “gan” yoki “gon” kabi leksemalar, o’z navbatida, O’rta Osiyo voha va vodiylarining tarixiy nomlarida ot yasovchi morfema yoki substrat shaklida birikib keladi.

“Namangon” atamasidagi “gon” qo’shimcha leksemasi esa, aslida sug’diycha “kanta” yoki “kanda” so’zidan hosil bo’lgan. Bu so’zlar “qazimoq” va “o’ymoq” kabi ma’nolarini anglatgan. Mazkur leksema ko’pincha “kan” yoki “kon” va “kom” shakllarida ifoda etilib, ayrim hollarda uning bosh harfi “g” yoki “j” tovushlari bilan o’rin almashgan.

Demak, Namangan yoki Namakkon toponimlariga aniqlovchi sifatida birikkan “gan” yoki “gon” va “kon” kabi so’zlar, shubhasiz, daryo yoki soy kabi tushunchalarini anglatuvchi sinonimik leksemalar bo’lib, Namangan shahri qad ko’targan hududning tabiiy manzarasini ifodalagan.

Namangan shahri aslida “Navmangon” talaffuzida yuritilib, Farg’ona vodiysining bu so’lim go’shasi “Soy bo’yidagi Yangisaroy”: “Daryo sohilidagi Yangiqasr”; “Suv yoqasidagi Yangi qarorgoh” va “Soy labidagi Yangi o’rda” kabi ma’nodor nomlar bilan shuhrat topgan”.¹ Biz polisonim haqidagi mazkur talqinga qo’shilamiz.

2006-yilning fevral oyidan Namangan shahrining Chorsu dahasidagi boshlangan yo’l-ko’prik qurilishi munosabati bilan 10-11 metrlik chuqurlar qazildi. Ushbu chuqurlardan topilayotgan ashyolar bu joylarda arxeologik madaniy qatlamning borligiga ishonch uyg’otdi. Ushbu madaniy qatlam va bu yerdan topilgan topilmalarni tahlil qilishda yordam so’rab va ular to’g’risida ilmiy xulosalar chiqarish maqsadida arxeolog olim A.Asqarov taklif etildi. U kishining maslahatlari bilan kotlovan kesmasida X-XI asrga oid badrab ochib o’rganildi. Uni tozalash vaqtida, badrabning quyi qismidan X-XI asrlarga oid naqshinkor sopol buyumlar va qoraxoniylar davriga oid mis chaqalar topildi. Sopollarda ko’fiyda shu idishdan ovqat yeganlarga baraka, mo’lko’lchilik tilagan arabiy yozuv ham

¹ Каранг. Мухаммаджонов А. “Наманган” топонимиясининг этимологияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2003. - №5. – Б. 35-38.

bor. Sopollar kulolchilik charxida bozorgir qilib ishlangan. Sopollar bozor uchun yasalgan, bozor esa ko'hna shaharlarning muhim belgisidir.

Viloyat madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish davlat inspeksiyasi bu o'rinlarda muntazam ravishda o'z kuzatuvlarini olib borish natijasida ayrim natijalarga erishdi. Asrlar davomida yig'ilib qolgan madaniy qatlamlar 10-11 metrlarga yetadi. Lekin asosan shahar tipidagi qatlamlar 5-6 metrlar chuqurligida mavjud bo'lib, qazilgan qadimiy badrablar (kir va ahlat o'ralari) shulardan dalolatdir. Yer qatlamidagi ayrim joylarda XII-XIII asrlarda suv yoki sel kelishi natijasida paydo bo'lgan yarim-bir metrlik qalinlikdagi loyqa va shag'al-qum qoldiqlari ham uchramoqda. Hozirgi kundagi asosiy topilmalar o'rta asrlar, aniqrog'i IX-XI asrlarga, ya'ni Somoniylar va Qoraxoniylar davriga mansub bo'lgan sopol buyumlar qoldiqlaridan iboratdir. Bu topilmalar ichida Buyuk ipak yo'li o'tganligini tasdiqlovchi Vizantiyaning rangli shisha siniqlari va ko'fiy yozuvli sopol idish siniqlari ham topildi.

Shu bilan birga, Axsikentda tayyorlangan shisha idish qoldiqlari, turli o'lchamdagi sopol quvurlar namunalari ham uchradi. Ota-bobolarimiz qadimda tegirmon o'rnida foydalangan tosh yorg'uchoqlar va shu kabi toshdan ishlangan mehnat qurollari ko'plab topildi. Bu topilmalar Namangan shahrining yoshi 1000-1100 yilga teng ekanligiga ishoradir.

Topilmalar ichida XII asrda qurilishda keng qo'llanilgan 52x27x10 sm o'lchamda bo'lgan katta g'isht, sollati g'isht, ya'ni o'lchami 25x12x6 sm bo'lgan Somoniylar hamda Qoraxoniylar davrida ishlatilgan pishiq g'isht namunalari ham uchraydi. Bu Namangan shahri X-XII asrlarda Axsikent tasarrufidagi shaharlardan bir kichik qasabasi, kenti bo'lganligidan dalolat bermoqda.

Madaniy qatlamlarda qazish ishlarini olib borilganda, turli davrlarga oid sopol buyumlar va Somoniylar hamda Qoraxoniylar davrida zarb etilgan mis tangalarga ham duch kelindi. Bu bilan shuni aytish mumkinki, Namangan

zaminida deyarli 9-10 asrlarda shahar tashkil topgan va rivojlanishda davom etgan.¹

Keyingi yillarda yo'l ko'rsatkichlarda, avtobuslarda, ayrim lavhalarda Namangan polisonimini "*Namangon*", "*Nomongon*" tarzida turlicha yozish kuzatilmoqda. Natijada Namangan polisonimi imlosi uch xil ko'rinishga ega bo'lib qoldi. Natijada mazkur toponimning imlosi xususida munozara va bahslar yuzaga keldi.

Abdumajid Mamadaliev shahar nomi va uning imlosi xususida fikr yuritib quyidagilarni yozgan edi: "*Namangan* so'zi hozirgacha noto'g'ri talaffuz etib kelinmoqda. Biror namanganlik kishi bu so'zni "*Namangan*" tarzida qo'llamaydi. Shahar ahli "*Nomongon*" shaklida talaffuz etadilar. Aslida, so'z etimologiyasiga ko'ra, "*Nomongon*" yoki "*Namangon*" sifatida ishlatilishi to'g'riroq bo'lardi. "*Namangan*" shakli esa shahardan tashqarida yashovchi qipchoq shevasida aytiladi, xolos.

"*Namangan*" so'zining kelib chiqishini "*Namakkon*", ya'ni "tuz koni" deyilishi haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Sababi, shahar adir yonbag'rida paydo bo'lgan, u ko'llardan uzoqda joylashgan.

"*Namangan*" so'zi Axsikent zilzilasidan so'ng aholining yangi makonga ko'chishi zahirida vujudga kelgan bo'lishi tabiiy. Agar biz ana shu tarixiy jarayonni e'tiborga olsak, bu so'zni quyidagicha izohlashimiz haqiqatga yaqin keladi. "*Nav*" – yangi yer. "*makon*" – joy, yer so'zlaridan tuzilgan. Namagan shevasi "o'lovchi guruhga kirishini yana eslang. "*Navmakon*" – "*Namokon*" – "*Navmakon*". Quyidagi so'zlarni izohlaymiz: Yangiqo'rg'on, Yangikent, Yangier. Demak, "*Novmakon*" so'zi "yangi yer" so'ziga mutlaqo to'g'ri keladi".²

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Alixon Xalilbekov bu haqida quyidagicha fikr bildiradi: "*Xullas, "Namangon", "Nomongon"* yozilishi uchun yuqoridagi qarashlar asos va dalil hisoblana olmaydi. Qolaversa, joy nomlarining yozilishini shaxsiy xohish va mulohazalar emas, balki tasdiqlangan imlo qoidalari

¹ Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Косимов А. Наманган вилояти маданий мероси. – Тошкент: Наманган, 2013. – Б. 7-8.

² Абдумажид Мамадалиев Ҳар атамада моҳият бор// Ўқитувчилар газетаси, 1991, 2. 05.

belgilaydi. *Namangan* nomi Oliy Kengash qarori bilan qat'iyalashtirilgan. Oliy Majlis qarorisiz shahar nomining biror harfini ham o'zgartirib bo'lmaydi. Shahrimiz va viloyatimiz nomi *Namangan* tarzida yozib kelingan va shundayligicha qolishi kerak. Uni o'zgartirish uchun zaruriyat yo'q".¹

A. Xalilbekov fikrlariga qo'shilmagan professorlar Ismatulloh Abdullaev, Odiljon Nosirovlar esa bu haqida quyidagicha mulohaza bildirganlar: "Biz muhtaram dotsent Xalilbekovning fikrlariga e'tiroz bildiramiz va shahrimiz nomini "Namangon" tarzida yozish lozim deb hisoblaymiz.

A. Xalilbekov "Namangan" deb yozish qonunlashtirilgan deydi. Juda to'g'ri. Biroq, u vaqtlarda joy nomlarini ruscha tallaffuzga yaqinlashtirishga harakat kuchli edi va oqibatda shunday yozish qonunlashtirilgan edi ("Zadaryo" so'zi ham o'sha davr mahsuli!).

Ikkinchidan, o'zbeklar joy nomlarini Namak-kent (ya'ni tojikcha-turkiycha birikma) tarzida yasamaganlar. Doimo tojikcha-tojikcha yoki turkiycha-turkiycha

A. Xalilbekov esa "namak" so'zi "sho'r yer" ma'nosida, binobarin "Namakkent" "sho'r yer" ma'nosida deb hisoblab, xatoga yo'l qo'yadi. Holbuki, "kent" so'zi (qo'shimchasi) "kant", "kan" shakllarida uchraydi, lekin uning "gan" shaklida kelishi uchramaydi. Shuning uchun "Namakkon" dan "Namangon" bo'lib ketgan desak, har holda haqiqatga yaqin bo'ladi.

Uchinchidan, A. Xalilbekov "Namangan" so'zi klassik she'riyatdagi vazn, qofiya talabi bilan "Namangon" bo'lib qolgan deydi.

Ma'lumki, turkiy xalqlarda toponimlar 90 foiz holda qabila, urug' nomlari bilan bog'liq.


Viloyatimizda ko'plab nayman urug'lari vakillari yashagan va o'sha joylar Nayman, Naymancha va boshqa variantlarda ataladi.

Ushbu qonuniyatlardan kelib chiqib, Namangon so'zi "Nayman" va ko'plik affiksi – "gon" dan hosil bo'lmaganmikin? Bordi-yu shunday bo'lsa, Namangan emas Namongon yozilishi eng to'g'ri yozilish bo'ladi".²

¹ Халилбеков А. "Наманган" – монанд ва мувофиқ// Наманган ҳақиқати, 12.10.94.

² Абдуллаев И., Носиров О. Тарихий манбалар асосида ёзиш керак//Наманган ҳақиқати, 11. 01. 95.

Bizningcha, barcha nomlar talaffuzga muvofiq yozilmaydi. Nomlarning talaffuzi va imlosi turlicha bo'lishi mumkin: *Toshkent* – *Toshkan*, *Andijon* – *Anjon*, *Samarqand* – *Samarqant* kabi. Namangan shakli uzoq vaqtlar davomida qo'llanib tilga va imloga singigan, zamonaviy manbalarda shu shaklda qo'llanib kelgan va kelmoqda. Shunday ekan, aynan *Namangan* shaklida yozilishi maqsadga muvofiq.



1-rasm. Mikrotoponimlarning o'rganishning ahamiyati

2.2. Namangan shahri mikrotoponimiyasining umumiy tavsifi va tasnifi

Namangan shahri Namangan viloyatining ma'muriy markazi bo'lib, tarixiy manbalarda 1610-yildan tilga olinadi. Maydoni – 101,5 kv.km. Shahar aholisi 2011-yilning 1-yanvar holatiga 451,0 ming kishiga yetgan. Hozirgi kunda shaharda 81 ta mahalla fuqarolar yig'inida 116 905 ta oila istiqomat qiladi.¹

Namangan shahri aholi soni jihatidan Toshkent shahridan so'ng ikkinchi o'rinda turadi.

Namangan tarixiy manbalarda hijriy 1053-, milodiy 1643-yillarga doir vaqf hujjatlarida qishloq, Mahmud ibn Valining yozishicha, 1758-yillarga doir hujjatlarda esa viloyat sifatida tilga olingan.²

Namangan shahri mikrotoponimiyasi deyilganida mazkur hududdagi fizikaviy-geografik ob'ektlarning atoqli otlari majmui tushuniladi.³ Shuningdek, shaharga oid toponimlar guruhi **urbanim** (lot. *urbonus* - *shaharga oid* + *onoma* – *atoqli ot*)lar deb ham yuritiladi.⁴ Demak, urbanimlar va hududga mansub boshqa, xususan, iqtisodiy, madaniy ob'ektlar majmui shahar mikrotoponimiyasini tashkil etadi.

Tomonimikaga oid ilmiy tadqiqotlarga, onomastik terminologiyaga oid lug'atlarga asoslangan va to'plangan materiallarni o'rgangan holda Namangan shahri mikrotoponimlarini mavzuiy va tur jihatidan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Mahalla nomlari: *Sardoba, Sumalak guzari, Axsikent, Mashrab, Kurashxona, Yakkasada, Mingchinor, G'ishtko'prik, Chorsu, G'uncha, Sharshara, Davlatobod* kabi.

¹ Янгиланаётган Наманган. - Наманган, 2011.

² Бу ҳақида қаранг. Қосимов Ў. Наманган воҳасининг суғорилиш тарихидан. - Тошкент: Фан, 1988. - Б. 24.; Наливкин В. П. Краткая история Кокандского ханства. - Казань, 1886. – С. 24. ; Махмуд ибн Вали. Баҳр ал-асрор фи манокиб ал-ахбор. ФАШИ қўлёзмалар фонди. Инв. № 2372 ва 2385, 1086-варақ.

³ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. - Наманган, 2006. - Б. 46.

⁴ Бегматов Э., Улуков Н. Ўша луғат, 87-бет.

Namangan shahri mikrotoponimiyasida mahalla nomlari salmoqli o'rin tutadi. Namangan shahrida 79 ta mahalla bor.

2. Godonimlar (*godo - ko'cha, yo'l + onoma – atoqli ot*):

a) shohko'cha nomlari: *Boburshoh, Navoiy, Do'stlik* kabi;

b) ko'cha nomlari: *Uychi, Marg'ilon, Oromgoh, Langar, Suvjuvoz, Oydinko'l, Namangansoy, Ko'zagarlik, O'rikzor, Guliston* kabi;

v) xiyobon nomlar: *Amir Temur xiyoboni, Bobur xiyoboni* kabi.

3. Shahar xoronimlari:

a) daha (kvartal): *Sardoba, Taxtako'prik, Sumalak, Do'stlik*;

b) guzar nomlari: *Sumalak guzar, Atangan guzar* kabi;

v) bog': *Bobur nomli madaniyat va istirohat bog'i, «Kamolot» yoshlar bog'i, Kichkintoylar bog'i* kabi.

4. Oykodomonimlar (*shahardagi bino, inshoot, saroy, uylarning maxsus nomlari*): *Alisher Navoiy nomidagi davlat musiqali drama teatri, Nodira nomidagi viloyat kutubxonasi* kabi.

5. Ekklezioneim (*yun. eklektikos – yig'ilish, to'planish joyi + onoma – atoqli ot*)lar:

a) masjid nomlar: *Ota Valixon to'ra masjidi, Azizxo'ja eshon masjidi, Shayx Ishoq Eshon masjidi* kabi;

b) madrasa nomlari: *Azizxo'ja eshon madrasasi, Mulla Qirg'iz madrasasi*;

6. Agoronim (*yun. ayopa – maydon, bozor + onoma – atoqli ot*)lar:

a) maydon nomlari: *Tinchlik, Xotira maydoni*;

b) bozor nomlari: *Sardoba bozori, “Chorsu” dehqon bozori, “Lola” jahon bozori, “Do'stlik” bozori*.

7. Nekronim (*yun. vexpwv – qabriston + onoma – atoqli ot*)lar:

a) maqbara nomlari: *Mavlaviy Namongoniy maqbarasi, Xo'ja Amin maqbarasi, Mulla Bozor Oxund maqbarasi*;

b) qabriston nomlari: *Otbozori, O'n bir Ahmad* kabi.

8. Gidronimlar (*suv obe'kti va inshootlarining atoqli nomlari*): *Yangiariq, Katta Namangan kanali, Namangansoy, Kappon, Oydinko'l* kabi.

Namangan shahri mikrotopimlarining barchasi o'ziga xos tarixga, nomlanish motiviga, lug'aviy asosiga ega. Mikrotoponimlarni tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilish bir necha sohalar uchun ma'lumotlar beradi. Shu bois toponimlarni **xronologik tasnif** qilish muhim ahamiyatga ega.

Mikrotoponimlarning paydo bo'lish vaqti, davriga ko'ra muayyan guruhlariga bo'lish **toponimlarning xronologik tasnifi** hisoblanadi.¹

Z.Do'simov xronologik jihatdan toponimlarni quyidagi guruhlariga ajratadi:

1. Toponim-arxaizmlar.
2. Toponim-istorizmlar.
3. Neotoponimlar.²

N.Oxunov esa joy nomlarini xronologik jihatdan quyidagi ikki guruhga ajratib tahlil qiladi:

- 1) eski nomlar; 2) yangi nomlar.

N.Oxunov eski nomlarni, vujudga kelishi nuqtai nazaridan, sho'ro davri siyosatiga asoslangan holda, Oktyabr revolyutsiyasiga qadar yaratilgan toponimlar hisoblab, ularni o'z ichida bir necha guruhga ajratadi. U neotoponimlarni yangi nomlar sifatida izohlaydi.

N. Uluqov fikricha, toponimlarning xronologik tasnifida ularning yaratilish davrini e'tiborga olish, nomlarni o'z ichida tarixiy nomlar va hozirda ham qo'llanuvchi zamonaviy nomlarga ajratish ma'qulroq.³

Yuqoridagi toponimlarning xronologik tasnifiga doir tadqiqotlarga ijodiy yondoshgan holda Namangan shahri mikrotoponimlarini xronologik jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Tarixiy mikrotoponimlar.
2. Zamonaviy mikrotoponimlar.

¹ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 91.

² Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. – № 8. – Б. 20.

³

Shahar mikrotoponimlarining salmoqli qismi yangi, zamonaviy toponimlar bo'lsa-da, tarixiy nomlar ham kuzatiladi. *Sardoba*, *Ota Valixon to'ra masjidi*, *Azizxo'ja eshon masjidi*, *Shayx Ishoq Eshon masjidi*, *Kurashxona*, *Chorsu*, *Maddoh*, *Degrezlik*, *Chuqurko'cha*, *Taxtakoprik*, *G'ishtkoprik*, *Kurashxona*, *Bordonqo'rg'on*, *Boyariq* (hozirgi *Namangansoy*) kabi nomlar tarixiy bo'lib, o'zida shahar tarixi va taraqqiyoti bilan bog'liq ma'lumotlarni tashiydi.

Eskirgan tarixiy gidronimlar esa o'zbek xalqiga oid turli tarixiy manbalarda kuzatiladigan, hozirgi o'zbek tilida dubleti mavjud suv ob'ekti nomlaridir.

Mazkur toponimlardan *Sardoba*, *Degrezlik*, *Chuqurko'cha* kabi tarixiy nomlari hozir ham iste'molda. Hatto *Sardoba* mikrotoponimi uchun motiv bo'lgan qadimiy suv ob'ekti o'zi yo'qolib ketgan bo'lsa-da, nomdan nomlar tug'ilib, mazkur hududdagi daha va unda joylashgan bozor, oshxona nomlari yuzaga kelgan.

Namangan shahri mikrotoponimlarining bir qismi yangi, zamonaviy gidronimlardir. Zamonaviy gidronimlar sirasiga so'nggi yillarda yuzaga kelgan nomlar kiradi. Masalan, *Istiqlol*, *Mustaqillikning 5 yilligi*, *G'uncha*, *Go'zal*, *Do'stlik*, *Yangiobod*, *Yangihayot*, *Bunyodkor*, *Hurriyat*, *Charog'on*, *Kamolot*, *Nurobod*, *Oromgoh* kabi.

Demak, Namangan shahri mikrotoponimiyasi boy bo'lib, unda deyarli toponimlarning barcha turlari mavjud. Shahar mikrotoponimiyasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan bog'liq o'zgarishlarni tarixiy va zamonaviy aspektda tadqiq etish tarix, geografiya, tilshunoslik fanlari uchun muhim ahamiyatga ega.

2.3. Namangan shahri mikrotoponimiyasining lisoniy taraqqiyoti va takomillashuvi

Istiqlolga erishgach, mustaqil O'zbekiston davlati o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlarini tiklash, xalqning o'zligini anglash, mustaqillikning sharofatini chinakamiga sezish ishiga juda katta e'tibor bera boshladi. Joy nomlari, ayniqsa, tarixiy toponimlar, milliy qadriyatlar milliy tilning bebaho boyligi hisoblanadi. Buning ustiga, O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda eski tuzum g'oyalari mafkurasini eslatuvchi nomlar barcha yerlarda o'zini ko'z-ko'z qilib turardi.

Masalan, 1990 yillarga Namangan shahri mikrotoponimiyasida *Vorovskiy, Kuybishev, Malaya, Ribnaya, Ostrovskiy, Lomonosov, Partiya XXII se'zdi, Kommuna* kabi o'nlab sho'ro ruhi bilan sug'orilgan mahalla va ko'cha nomlari faol kuzatilardi.

Shu tufayli sho'rolar davrida joylarga berilgan o'zbek xalqi ma'naviyati, ona tili ruhiga yot bo'lgan nomlarni tugatish, ularni yangi nomlar bilan almashtirish nihoyatda zarur edi. Mana shunday o'ta zarur, ulkan siyosiy va lisoniy tadbirning taShubbuskori, rahnamosi Prezidentimiz I.A.Karimov bo'ldi. U o'zining Oliy Majlis yig'inlarida, respublikaning turli joylarida qilgan chiqishlarida eski tuzumdan qolgan sun'iy, milliy qaryatlarimiz ruhiga zid bo'lgan toponimlarni tugatish haqida ko'p bor gapirdi. Natijada, O'zbekiston hukumati, joylardagi hokimiyat organlari joy nomlarini o'zgartirish, yangilash, ya'ni, mustaqillik davri talablariga moslash ishiga kirishdi. Bu ish ham ilmiy, ham tashkiliy, ham amaliy jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yildi.

Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida **Respublika toponimiya komissiyasining** tuzilgani, uning respublikada toponimik ob'ektlarga nom berish masalalari bilan jiddiy shug'ullana boshlagani, viloyat tuman va yirik shaharlarda ham toponimiya komissiyalari tuzilgani muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Respublikadagi tabiiy-geografik ob'ektlarga nom berish, ular nomini o'zgartirish, yangi bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi. Bu tadbirlarning qabul qilinishi va amalga oshishida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari, tashkilotlar va boshqa toponimik ob'ektlarning nomini tartibga solish to'g'risida" 1996-yil 31-mayda qabul qilingan qarori va 203-sonli qarori bo'yicha Tavsiyalari (1996-yil 31-iyul), shuningdek, "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustdagi Qonuni muhim ahamiyatga kasb etdi.

Bu borada Namangan viloyati hokimligi, jumladan, shahar va tuman hokimliklaridagi toponimik komissiyalar tomonidan bir qator ibratli ishlar amalga oshirildi. Ular quyidagilarda yaqqol ko'rinadi:

1. Viloyat, shahar va tumanlar, jumladan, Namangan shahar toponimik komissiyalari muntazam ish olib bordi va hozirga qadar ham faoliyatini davom ettirmoqda.

Tarixiy ahamiyatga molik nomlarni tiklash, eski tuzum bilan bog'liq nomlarning joylardagi saqlanib qolgan qoldiqlarini tugatish, joy nomlarini davlat tili – o'zbek tilida, hozirgi joriy yozuvda yozish an'anasi amaliyotga kirdi. Bu, albatta, Namangan shahri toponimiyasida bir qator ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Masalan, Namangan shahar mahalla fuqarolar yig'inlarining eski nomlari milliy, tarixiy, aholi talabiga mos nomlar bilan almashtirildi. Biz buni quyidagi jadvalda berdik.

2. Viloyatdagi bir qator toponimalar almashtirildi: *Naymancha* (avvalgi O. Jo'raboev ko'chasi), *Lashkar* (avvalgi T. Shermatov ko'chasi), *Olti og'ayni* (avvalgi I. Nabiev ko'chasi), *Olchinmazor* (To'ra.t. avvalgi M. Haqnazarov ko'chasi), *Chuqurko'cha* (To'ra.t. avvalgi S. Budyoniy ko'chasi), *Arg'amchilik* (To'ra.t. avvalgi R. To'raboev ko'chasi), *Buloqboshi* (Chor. t. avvalgi S. Rahimov ko'chasi), *Qirqqiz* (Chor. t. avvalgi H. Olimjon ko'chasi), *Sultonsaid* (avvalgi S. Rahimov ko'chasi), *Eshonko'cha* (avvalgi U. Yusupov ko'chasi),

Yangitong (Nor. t. avvalgi U. Yusupov MFY), *Obod*(To'ra.t. avvalgi G'alaba MFY) kabi.

Shu jumladan, shahardagi faqat ko'cha va mahalla nomlari emas, bir qator madaniy ob'ekt nomlari, jumladan, *V.I. Lenin nomli markaziy kutubxona Nodira*, *“Udarnik” bosmaxonasi Ibrat*, *Pushkin nomli madaniyat va istirohat bog'i Zahiriddin Muhammad*, *“Yosh gvardiya” kinoteatri Abdusattor Rahimov* deb o'zgartirildi.

№	Mahalla fuqarolar yig'inlarining eski nomlari	Mahalla fuqarolar yig'inlarining yangi nomlari
1	<i>Komsomol</i>	<i>Bahodireshon</i>
2	<i>Karl Marks</i>	<i>Dashtbog'</i>
3	<i>Udarnik</i>	<i>Rafiq Mo'min</i>
4	<i>Sotsializm</i>	<i>Avliyodomla</i>
5	<i>Qizil yulduz</i>	<i>Zarbdor</i>
6	<i>Birinchi may</i>	<i>Buramatut</i>
7	<i>Sho'ro</i>	<i>Yangihayot</i>
8	<i>Qizil Sharq</i>	<i>Sharq tongi</i>
9	<i>Qizil Chorsu</i>	<i>Chorsu</i>
10	<i>Artelobod</i>	<i>Majnuntol</i>

3. Joylarni nomlashda ularga shaxs nomlarini berishning ba'zi me'yorlari ishlab chiqildi.

Joylarga kishilar nomlarini berishni cheklash bo'ldi. Ushbu munosabat bilan joylarga avvallari shoshilinch ravishda qo'yilgan va kishi nomlaridan iborat bo'lgan toponimlarni joyning tabiiy-geografik holatini ifoda etadigan, istiqloq mafkurasiga javob beradigan nomlar bilan almashtirildi, bir qancha hududlarning oldingi tarixiy nomlari tiklandi. Milliy istiqloq yillari davomida respublikamizning viloyat, Shahar, tumanlarida eski tuzum mafkurasi bilan bog'liq bo'lgan, mustamlaka davri g'oyalarini targ'ib qiluvchi, hech qanday milliy ma'no,

xususiyat kasb etmaydigan nomlar bilan atalib kelingan yuzlab qishloq, mahalla, guzar nomlari fuqarolarning taklif va mulohazalari asosida mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda o'zgartirildi.

4. Bir qancha tarixiy, qadimiy nomlar tiklandi. Masalan, *Ko'nychilik* (avvalgi *Bozor ko'chasi*), *Bazzoz* (avvalgi *Gulpora ko'chasi*), *Kigizchi* (avvalgi *Sh. Rizaev ko'chasi*), *Qadamjoy* (avvalgi *Ittifoq ko'chasi*); *O'rikzor* (avvalgi *Ostrovskiy ko'chasi*), *Jiydakapa* (avvalgi *VLKSM 50 yilligi ko'chasi*), *Langar* (avvalgi *Vorovskiy ko'chasi*), *Boyko'cha* (avvalgi *Voykov ko'chasi*), *Qalampirtepa* (avvalgi *Shkolnaya ko'chasi*), *Misgar* (avvalgi *Klara Setkin ko'chasi*), *Eski bo'yoqchi* (avvalgi *Maliy ko'chasi*), *Tegirmon yo'li* (avvalgi *Kortokaya ko'chasi*), *Taxtako'prik* (avvalgi *Jdanov ko'chasi*), *Yigchi* (avvalgi *Pioner ko'chasi*), *Suvjuvoz* (avvalgi *3-Pioner ko'chasi*), *Pillakashlik* (avvalgi *Litvinov ko'chasi*), *Sumalak* (avvalgi *2-Jdanov ko'chasi*) kabi.¹

5. Joy nomlari tizimidagi takroriylik masalalari ko'rib chiqildi va bunga barham berildi.

O'zbekiston Respublikasidagi toponimik ob'ektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasi Majlisining 2006-yil 21-iyuldagi bayoniga asosan Namangan shahri hokimining 2006-yil 23-avgustdagi 682-sonli qaroriga bilan 67 tadan ziyod ob'ektlar qayta nomlandi, quyidagicha o'zgartirildi: Mehnatobod mahalla fuqarolar yig'inidagi *Obod* (takroriy) ko'chasi *Tafakkur*, 1-Axsikent mahalla fuqarolar yig'ini *Axsikent*, Madaniy maorif mahalla fuqarolar yig'inidagi *Xidiraliev ko'chasi Baxmal*, Nurchi mahalla fuqarolar yig'inidagi *Nurchi* (takroriy) ko'chasi *Porloq*, Navbag'or mahalla fuqarolar yig'inidagi *Olmazor* (takroriy) ko'chasi *Sebzor*, Yangi qurilish mahalla fuqarolar yig'inidagi *Yangihayot* (takroriy) ko'chasi *Ibn Sino*, Ishchi mahalla fuqarolar yig'inidagi *Y. Oxunboboev* (takroriy) ko'chasi *Hamroh*, Yangi tong mahalla fuqarolar yig'inidagi *Kamolot* (takroriy) ko'chasi *Iftixor* kabi.

¹ Қаранг. Наманган шаҳридаги номлари ўзгарган кўчалар, маҳалла фуқароо йиғинлари, мактаблар ва бошқа топонимик номлар ҳақида маълумотлар. - Наманган, 1997. – 25 б.

Sotsiolingvistik nuqtai nazardan qaraganda nomlanish ham lingvistik hodisa sanaladi. Binobarin, toponimlarning paydo bo'lishi, turg'unlashishi, yoki aksincha, almashiinishi, ma'nosida turlicha o'zgarishlarning sodir bo'lishi jamiyat taqdiri bilan bog'liq bo'ladi. Har qanday toponimik o'zgarish jamiyatda amalda bo'lgan til qonuniyatlari doirasida sodir bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyulda **“O'zbekiston Respublikasidagi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”** 120-sonli maxsus qarori qabul qilingan. Bu qarorda “O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalarini hal etish tartibi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining aholi maskanlari bo'yicha qabul qilingan standartlariga mos ravishda qishloq aholi punktlarini ro'yxatdan o'tkazish va zarur hollarda ularni Shaharchalar toifasiga kiritish bo'yicha iltimosnomalar taqdim etish vazifasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tumanlar hokimliklariga yuklatildi.¹

Bu qonun va qarorlar nafaqat toponimlar, balki toponimik, jumladan, oykonimik indikatorlar doirasida o'zgarish hamda yangilanishlarga ham olib keldi: *oblast*, *rayon*, *posyolka* kabi lug'aviy birliklar iste'moldan chiqib ketdi. Jumladan, o'zbek tilida faol qo'llanib kelingan, *posyolka* so'zi asli ruscha bo'lib, *asosiy qishloq yoki Shahardan uzoqda bo'lmagan kichik qishloq* degan lug'aviy ma'noga ega. Mazkur so'z o'zbek tilida aynan Shu ma'noda qo'llanibgina qolmasdan, ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega bo'lib, 1990 yillarga qadar «*Shahar tipidagi katta qishloq*» ma'nosida ham qo'llandi.² O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi, o'zbek tiliga rus va Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarning o'zbekcha muqobillarini yaratilishi natijasida hozirda **prospekt** o'rnida **shohko'cha** so'zi faol qo'llanmoqda. Masalan, *Boburshoh shohko'chasi*, *Navoiy shohko'chasi*, *Do'stlik shohko'chasi* kabi.

¹ Ўзбекистон Қонун ҳужжатлари тўплами. - Тошкент, 2005, июль. - № 28-29.

² Ўзбек тилининг изоҳи луғати, 1-т, 599-бет.

Prezidentimizning 2009-yil 6-avgustdagi “Namangan shahrining 2009-2012 yillarda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish bo’yicha chora-tadbirlar dasturi to’g’risida” gi qarori asosida hamda mustaqillik, istiqlol samarasi va ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o’zgarishlar, yangi turarjoylarning, madaniy ob’ektlarning qurilishi natijasida Namangan shahri mikrotoponimiyasida quyidagi **yangi toponimlar**, ilmiy til bilan aytganda **neotoponimlar** yuzaga keldi:

1) **ko’cha nomlari:** *Turkiston, Binafsha, Dilkash, Osiyo, Orombaxsh, Muhandis, Oydinko’l, Oynai jahon, Iftixor, Mangulik, Hamdo’stlik, Shiroq, Ezgulik, Ravnaq, Charog’on, Bunyodkor, Bahoriston, Sog’lom avlod, Sportchilar kabi;*

2) **mahalla nomlari:** *Uchyog’och, Qadamjoy, Yakkasada, Mehribonlik, Obihayot, Ma’naviyat, Istiqlol, Hurriyat, Mustaqillik, Mustaqillikning besh yilligi kabi;*

3) **maydon nomlari:** *Tinchlik maydoni, Xotira maydoni kabi;*

4) **sport majmualari va inshootlari nomlari:** *“Navbahor” stadioni, “Do’stlik” tennis korti, “Pahlavon” sport majmuasi, “Barkamol avlod” sport majmuasi kabi.*

5) **madaniy ob’ekt nomlari:** *Yoshlar markazi;*


6) **bog’ nomlari:** *“Kamolot” yoshlar bog’i, “Kichkintoy” bog’i kabi;*

7) **bozor nomlari:** *“Lola” jahon bozori, “Do’stlik” bozori;*

8) **sanoat korxonalari nomlari:** *“Istiqlol”, “Iftixor kiyim sanoati”,*

9) **mehmonxona nomlari:** *“Chorsu”, “Turkiston”, Namangan, Istiqlol versal, Saydana.*

Shu o’rinda qayd etish joizki, bugunga kelib, Namangan shahar mikrotoponimiyasida bir qator tarixiy nomlar asosida yangi nomlar ham shakllandi. Bu, albatta, “Nomlardan nomlar tug’iladi” degan xalqona naqlni tasdiqlaydi. Masalan, *Chorsu* maydoni nomi asosida “Chorsu” nomli mehmonxona, bozor, bekat, *Sardoba* dahasi nomi asosida “Sardoba” nomli mahalla, bozor, bekat, *G’ishtko’prik* nomi asosida mahalla, maydon nomlari kabi.



1-rasm. Namangan shahri mikrotoponimlarining turlari.

Namangan shahri mikrotoponimlarining nominativ-motivatsion xususiyatlari

Namangan shahri mikrotoponimlarini nomlanish motivlariga ko'ra quyidagi ikki turga ajratish mumkin:

1. Tabiiy-geografik mikrotoponimlar.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy mikrotoponimlar.

2.3.1. Tabiiy-geografik mikrotoponimlarning leksik-semantik xususiyatlari

Joylarni, jumladan, aholi manzillarini nomlashda hududning tabiiy-geografik xususiyatlari asosga olinuvchi birlamchi va yetakchi motiv hisoblanadi. Toponimlar paydo bo'lishida birinchi va eng keng tarqalgan motivatsiya aholi maskani joylashgan hududning tabiiy-geografik xususiyatini e'tiborga olinishidir. Bunda joyning tabiiy-geografik xususiyatining aks ettiruvchi geografik tushunchalarning konkretlaShuvi va individuallaShuvi yuz beradi.

Tabiiy-geografik mikrotoponimlarlar o'z ichida quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Geomorfologik toponimlar.
2. Hidrotoponimlar.
3. Fitotoponimlar.
4. Zotoponimlar.

Geomorfologik mikrotoponimlar. Yer tuzilishi, sathi bilan bog'liq tarzda nomlangan aholi yashash manzillari **geomorfologik mikrotoponimlardir**. Demak, geomorfologik oykonimlar yerning geomorfologik xususiyatlarini motivga olish asosida nomlangan aholi manzillarining nomlaridir. Ayrim ilmiy manbalarda bunday nomlar **orotoponimlar** termini ostida o'rganiladi. Biroq bu tipdagi nomlarni xususiyatlarini **orotoponimlarga** nisbatan **geomorfologik toponimlar** termini mukammalroq ifodalaydi..

Geomorfologik **toponimlar** yer yuzasining rel'ef shakllarini hamda joyning landshaft tuzilishini ham ifoda etadi.

Namangan shahri mikrotoponimiyasida doirasida ham bir qancha geomorfologik toponimlar kuzatiladi: *Chuqurko'cha* (daha, mahalla), *Adirobod ko'chasi* kabi. Ko'rinadiki, Namangan shahri mikrotoponimiyasida bunday joy nomlari juda kam.

Namangan shahri gidrotoponimlari. Tilning toponimik tizimi doirasida tranonimizatsiya asosida bir joy ikkinchi bir joy nomiga aylanadi. Jumladan, suv ob'ekti nomi – gidronim mahalla, ko'cha, qishloq, shaharcha, shahar nomiga o'tishi ham mumkin.


Daryo, kanal, ko'l, soy, buloq, ariq, quduq va boshqa suv ob'ektlarining atqli nomlari gidronimlar asosida yuzaga kelgan aholi turarjoylarning nomlari **gidrotoponimlar** deyiladi. Masalan, *Qozonbuloq ko'chasi, Oydinko'l ko'chasi, sharshara ko'chasi, Bulqsoy ko'chasi, Yangiariq ko'chasi, G'irvonsoy ko'chasi, Namangansoy ko'chasi* kabi. Shuningdek, ko'prik nomiga nisbat berib atalgan mahalla, daha va ko'cha nomlari ham gidrotoponimlar guruhiga kiradi: *G'ishtko'prik, Taxtako'prik* va tarixiy *Qizilko'prik* nomlari kabi.

Namangan viloyati toponimiyasida anchagina gidrotoponimlar, jumladan, gidrooykonimlar kuzatiladi. Namangan viloyati gidrotoponimlari va uning turlari N.Uluqov tomonidan keng o'rganilgan.¹

Fitotoponimlar (o'simlik va daraxt nomlari bilan atalgan joy nomlari). Namangan shahar mikrotoponimlarning bir guruhini o'simlik va daraxt nomlari asosida yaratilgan nomlar tashkil etadi. Masalan, *Majnuntol MFY, Chinor MFY, Lolazor ko'chasi, Anorzor ko'chasi, Gulzor ko'chasi, Olmazor ko'chasi, Olvalizor ko'chasi, Jiydakapa ko'chasi, Yong'oqzor ko'chasi, Buramatut ko'chasi* kabi.

Keltirilgan fitotoponimlardan ko'rinadiki, Namangan shahar mikrotoponimiyasida manzarali va mevali daraxt nomlari bilan atalgan turarjoy nomlari salmoqli o'rin tutadi. Ayrim fitooykonimlar tarkibida o'simlik va daraxtlarning sanog'ini, miqdorini, xarakterli belgi-xususiyatlarini ifodalovchi so'zlar ham kuzatiladi: *Yakkasada, Buramatut* kabi.

¹ Каранг. Улуқов Н. Шимолий Фарғона гидротопонимлари // Ўзбек филологиясининг долзарб масалалари. Республика илмий-назарий анжумани материаллари.– Наманган, 2006. – Б.231-235.



2-rasm. Shahar ob'ektlarining atalish motiviga ko'ra turlari

2.3.2. Ijtimoiy-iqtisodiy mikrotoponimlar va ularning leksik-semantik xususiyatlari

Aholi maskanlarini nomlanishida xalqning iqtisodiy turmush tarzi – shug’ullanuvchi kasb-kori, xo’jalik faoliyati muhim omil bo’lib hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy toponimlar, xususan, oykonimlar o’z ichida quyidagi guruhlariga bo’linadi:

1. Antropotoponimlar.
2. Aholining kasb-kori, hunariga nisbat berish asosida shakllangan toponimlar.
3. Aholining yoki alohida shaxslarning ijtimoiy mavqei, nasl-nasabi-ga nisbat berish asosida yuzaga kelgan toponimlar.
4. Agiotoponim va nekrotoponimlar.

Namangan shahri antroponimlari. Antroponimlar – kishi nomlari, laqablari, taxalluslari, familiyalaridan yasalgan joy nomlari.¹

A.V.Superanskaya ta’kidlaganidek, toponimlarni yuzaga kelishi ma’lum hududdagi kishilarning urf-odati, tili va ularning taraqqiyot tarixi, madaniy yuksalishi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy turmushi bilan aloqadordir. Aniqrog’i, har qanday nomning motivlari tarixiy va sotsial ma’noga ega.²

Aholi yashash manzillarining nomlanishida, xususan, mikrotoponimlarning yuzaga kelishida uni bunyod etgan, bunyod etilishiga rahbarlik qilgan, shu yerda yashagan, birinchi kelib joylashgan kishilar yoki mashhur tarixiy shaxslar nomi motiv vazifasini bajaradi. Shu tarzda antropotoponimlar yaratiladi. Bunday toponimlarni Z.Do’simov **antroponimik tip** termini ostida tahlil qilgan.³

Antroponimlarning toponim aylanishi bir qancha ekstrolingvistik omillar asosida sodir bo’ladi. Bu, avvalo, antroponimlar bilan toponimlarni, aloqadorligidan kelib chiqadi, chunki har qanday mahalla, ko’cha, qishloq, shaharcha va shahar nomlari aholi turarjoy va manzillaridir. Antroponimlar

¹ Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиши хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б.16.

² Суперанская А.В. ОбХая история имени собственного.– М, 1973. – С.101.

³ Қаранг. Дўсимов З. Хоразм топонимлари.– Тошкент:Фан, 1985. – Б.94-97.

toponimlar tizimiga o'tar ekan, o'zi nomlayotgan joyning farqlovchi, boshqa turarjoylardan ajratuvchi lisoniy aniqlovchi – atribut vazifasini bajaradi. Bunda shaxs va ob'ekt munosabati muhim rol o'ynaydi.

Joy nomlari, umuman olganda, til lug'aviy boyligi sifatida yashovchan va turg'undir. Ammo, shu bilan birga, ular tarixiy sharoitga ko'ra o'zgaruvchandir. Bu xususiyat aslida toponimiyaning lisoniy tabiatidan kelib chiqmaydi. Toponimiyadagi bunday o'zgarishlarni tarixiy sharoitning o'zgarishi, siyosiy tuzumning almashinuvi, ayniqsa, chet ellik bosqinchilarning zo'ravonligi, "toponimik zug'umi" yuzaga keltiradi.¹

Namangan shahri mikrotoponimiyasida 1990 yillarga qadar sobiq sho'ro hukumati rahbarlari, daholari nomi bilan atalgan *Lenin prospekti (shohko'chasi)*, *Kuybishev ko'chasi*, *Klara Setkin ko'chasi*, *Sverdlov ko'chasi*, *Jdanov ko'chasi*, *Lenin yulduzi ko'chasi*, *Orjonikidze ko'chasi*, *Roza Lyuksemburg ko'chasi*, *Budyoniy ko'chasi* kabi mahalla va ko'cha nomlari mavjud edi.

Mazkur nomlar xalq an'alariga, qadriyatlariga, joylarni nomlashga qo'yiladigan talab va mezonlarga zid nomlar, sun'iy nomlar sifatida iste'moldan chiqib ketdi.

Ularning o'rniga Namangan shahar mikrotoponimiyasida quyidagi tipdagi antropotoponim guruhlarini yuzaga keldi:

1. Mashhur tarixiy shaxslar, allomalar, olim va shoir, yozuvchilar nomi bilan atalgan joy nomlari:

a) ko'cha nomlari: *Baxovuddin Naqshibandiy*, *Hofiz Sheroziy*, *Jaloliddin Manguberdi*, *Furqat*, *Sadriddin Ayniy*, *Abdulla Avloniy*, *Abdurauf Fitrat Oybek*, *Hamid Olimjon*, *Shukur Burxonov*, *Indra Gandi*, *Abror Hidoyatov*, kabi;

b) mahalla nomlari: *Fazliy*, *Beruniy*, *Mashrab*, *Rafiq Mo'min*, *Furqat*, *Hamza* kabi;

v) shohko'cha nomlari: *Boburshoh*, *Navoiy* kabi;

g) bog' nomlari: *Zahiriddin Muhammad Bobur*, *Mashrab* kabi;

¹ Бегматов Э. Мустақиллик ва топонимия// Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. – № 5. – Б.10.

d) maydon va xiyobon nomlari: *Amir Temur xiyoboni, Nodim Nomongoniy kabi.*

2. Mahalliy mehnat va Ikkinchi jahon urushi faxriylari nomi bilan atalgan aholi manzillari: *Soli Adashev, Akmal Yusupov, Nosirboev, Abdurashid Mamadaliev, Said Nabi, Qodir Otamirzaev, Muhiddin Shohimardonov, Usta Ro'zimatxon, G'ofur Qosimov, Aziz Tursun kabi.*

Aslida joylarni kishi nomlari bilan atash ijobiy hol emas, chunki bunday nomlar o'tkinchi. Qisqasi, antropotoponimlar turg'un nomlar sirasiga kirmaydi, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar ta'sirida almashib, yo'qolib ketadi. Joylarni shaxs nomi bilan atashning iloji boricha cheklangani ilmiy jihatdan ham to'g'ri. Chunki tilda kishi nomlari (ism, familya, taxallus, unvon va boshqalar) joylarni o'zaro farqlash uchun emas, shaxslarni bir-biridan farqlash uchun beriladi. Joy nomlari (toponimlar) esa joy va hududlarni yakkalab atash orqali farqlash uchun beriladi yoki yaratiladi. Buning ustiga, kishi nomi osonlikcha toponimga aylanmaydi, bu uchun uni shaklan va yasalishiga ko'ra o'zgartirish lozim bo'ladi: *Yunusobod, Amirobod* kabi. O'tmishda ota-bobolarimiz joylarni nomlashda mana shu usuldan keng foydalanishgan.¹

O'zbekistonda yuzaga kelgan istiqlool toponimik siyosati bois Namangan shahri toponimik tizimiga xos bir qator antropotoponimlarni davr ruhiga mos nomlar bilan almashtirish ishlari davom etyapti. Masalan, bir qancha kishi nomlari bilan atalgan ko'cha nomlari o'rniga quyidagi takliflar berilgan: *Soli Adashev* o'rniga *Tinchlik, Bog', Ahil* nomlari, *A. Vohidov* o'rniga *Tadbirkorlar, Sohibkor, Shifokorlar, Komil Yormatov* o'rniga *Chiroy, Qushchilar, Bepoyon, Botir Zokirov* o'rniga *Gulchilar, Mehmondo'st, Yosh avlod, M. Mansurov* o'rniga *Kulolchilar, Tanho, Toshloq, Mamarasulov* o'rniga *Yangiqo'rg'on, Zafarobod, Sohilobod* kabi nomlar taklifi berilgan. Bu nomlar hozirda Respublikka toponimik komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmoqda.

Aholining kasb-kori, hunariga nisbat berish asosida shakllangan nomlar. Qishloq, shaharcha, shaharlarni nomlashda ko'pincha mahalliy aholining

¹ Бегматов Э. Мустақиллик ва топонимия. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 2009. – Б.9-15.

kasb-kori, mashg'uloti, hunarmandchiligi ham asosga olinadi. Yurtboshimiz I. A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida o'tmish davrlar darakchisi bo'lmish xalqona toponimlarning ahamiyatiga alohida diqqat qilingan, bu xususda muhim fikrlar bayon etilgan. Muhtaram Prezidentimiz yozganlaridek, "ajdodlarimiz o'zlari yashayligan mahalla, shahar va qishloqlar, bog'-xiyobonlarga nom tanlashga juda katta e'tibor bergan... Qadimiy nomlarda ota-bobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o'z aksini topgan. Masalan, Toshkenining Eski shahar qismidagi *Pichoqchilik*, *Taqachi*, *Egarchi*, *O'qchi*, *Zargarlik*, *Parchabof* singari mahalla nomlari bu yerda hunarmandchilik naqadar rivojlanganligidan, xalqimizning azaldan o'troq hayot kechirib, yuksak madaniy turmush darajasiga ega bo'lganligidan dalolat beradi"¹.

Aholi manzillarining nomlanishida hududda yashovchi xalqning iqtisodiy turmush tarzi, kasb-kori, xo'jalik faoliyati muhim omil hisoblanadi. Qadimdan hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lgan joy nomlari ko'proq mahallalarga berilgan. O'zbekiston oykonimiyasida bunday nomlar salmoqli o'rin tutadi. Bunday nomlar ko'proq mahalla va ko'chalarga berilgan.

Farg'ona vodiysi, asosan, Farg'ona viloyati oykonimiyasiga xos bunday nomlar N.Oxunov tomonidan o'rganilgan.²

Namangan shahrida ham tarixiy *Ko'zagarlik*, *Ko'nchilik*, *Chilangar*, *Yigchi*, *Eski bo'yoqchi*, *Misgar*, zamonaviy *Shifokor*, *Binokor*, *Nurchilar*, *Ijodkor*, *Irrigator*, *Murabbiy*, *Muhandis*, *Ustalar*, *Tillakash*, *To'qimachilar*, *Sportchilar*, *Tadbirkor*, *Aloqachi*, *Bog'bon Nurchi MFY*, *Ishchi MFY*, *To'quvchi MFY* kabi bir necha aholining kasb-kori, hunariga nisbat berish asosida shakllangan nomlar mavjud.

Agio va nekrotoponimlar. Muqaddas deb hisoblanuvchi narsalar, ob'ektlar, shaxslarning atoqli oti agionimlar (agio – muqaddas + onoma – atoqli ot); mozorlar, qabristonlar va mana shu tipdagi muqaddas qadamjoylarning atoqli

¹ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: "Маънавият", 2008. – Б. 92.

² Охунув Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. –Тошкент: Фан, 1989. – Б.28.

nomlari nekronimlardir.¹ Agionim va nekronimlardan hosil bo'lgan aholi manzillarining nomlari **agiooykonimlar**, **nekrooykonimlar** deb yuritiladi. Masalan, *Hasti Xizir*, *Avliyo domla*, *Langar*, *Ahmad Yassaviy*, *So'fi Olloyor* kabi.

¹ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.11.

II bob bo'yicha xulosalar

1. Shaharga xos obe'ctlarning nomlanish tamoyillari, atalish motivlari barcha tillarda, jumladan, o'zbek tilida mushtarak bo'lib, bu aholi manzillarini nomlanishida ob'ektlarga xos deyarli bir xil belgi-xususiyatlar asosga olinishi bilan izohlanadi.

2. Shahar mikrotoponimlarining yuzaga kelishida antroponim, kasb-hunar nomlari kabi lisoniy unsurlar muhim onomastik birliklar sifatida qatnashgan. Shu bois statistik kuzatishlar nomlarning salmoqli qismi antroponim, kasb-hunar nomlari asosida shakllangan toponimlar ekanligini ko'rsatadi.

3. Hozirgi o'zbek tili, jumladan, Namangan shahri toponimiyasida kishi nomlari bilan atalgan nomlar ko'p. Bu hudud mikrotoponimiyasi tizimini yanada takomillashtirish lozimligini ko'rsatadi.

4. Ijtimoiy-siyosiy omillar asosida yuzaga kelgan toponimlarda xalqning yashash tarzi, xo'jaligi, kasb-kori, diniy munosabatlari yorqin aks etgan. Bunday toponimlar mohiyatan haqiqiy xalqona nomlar bo'lib, tilda uzoq yashaydi, o'zgarishga kam uchraydi.

5. Shahar mikrotoponimiyasida bir qator, xususan, *Xurmozorni Hurmonzor*, *Humoyunni Xumoyun*, *Mahmud Tarobiyni Maxmud Torobiy*, *Sohilbo'yini Soxilbuyi*, *Shohruhobodni Shoxruxobod*, *G'ishtko'prikn ajratib G'isht ko'pri*, *Taxtakoprikn Taxta ko'pri*, *Muhandisni Muxandis* tarzida imloviy jihatdan xato yozish hollari kuzatiladi. Nomlar imlosini tartibga solish, bu borada chora-tadbirlar belgilash bugungi dolzarb vazifalardan biridir.

III bob. Shahar mikrotoponimlarining etimologik xususiyatlari va struktural tasnifi

3.1. Namangan shahrining tarixiy mikrotoponimlarining etimologik xususiyatlari

Namangan shahri o'tmishda to'rt dahaga bo'lingan: *Degrezlik*, *Sardoba*, *Labbaytog'a*, *Chuqurko'cha* kabi.

Degrezlik toponimining lug'aviy asosi *degrezlik* kasb otidir. *Degrez* so'zi asli forscha bo'lib, *qozon quymoq* ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida qozon, omoch tishi va boshqa cho'yan asboblari quyuvchi(yasovchi) usta ma'nosida qo'llanadi. Degrez asosidan yasalgan degrezlik toponimi *degrezlar yashaydigan yoki joylashgan mahalla*, joy degan toponimik ma'noga ega.¹ Haqiqatdan, hududda hunarmandlar yashashgan. Ular cho'yandan qozon, omoch tishi, o'g'ircha kabi asboblari yasashgan.

Qo'qon shahridagi bir mahalla, Toshkent shahrining qadimiy mahallalaridan biri *Degrezlik* deb atalgan. Surxondaryo viloyatining Oltinsoy, Sherobod tumanlarida Degrez nomli qishloqlar bor.²

Namangan shahridagi Degrezlik dahasiga hozirgi Uychi ko'chasi atroflari, G'ishtko'prikdan tortib Taxtako'prikkacha bo'lgan hudud, Sumalak guzari, Chortoq ko'chalari kirgan.

Shaharning g'arbiy qismida *Sardoba* dahasi joylashgan. Sardoba dahasiga hozirgi *To'raqo'rg'on*, *Axsi*, *Qo'qon*, *G'alcha*, *Marg'ilon* ko'chalari kirgan.

Labbaytog'a ham shahardagi eng qadimiy dahalardan biri. Dahaga Soli Adashev nomli ko'chaning boshidan oxirigacha va Shimoliy Farg'ona kanali sohilidagi Oltitosh mavzelari kirgan. Daha o'z ichiga *Kurashxona*, *Poxolbosgan*, *Quvurboshi*, *Yettitoshli*, *Tegirmon*, *Qalandarxona* kabi qadimiy va tarixiy joylarni olgan.

Chuqurko'cha dahasi shaharning eng gavjum, hunarmandchilik ustaxonalari va do'konlari joylashgan qismidir. Daha nomlanish motiviga ko'ra geomorfologik

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-ж. – Б. 591.

² Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 17.

toponimlar guruhiga mansub bo'lib, asosiy aholi yashaydigan Jiydakapa ko'chasi boshqa hududlardan 1-1,5 metr Chuqurlikda joylashganligiga nisbat berib, **Chuqurko'cha** deb atalgan.

Chuqurko'cha dahasining markazi Chorsu bo'lib, unga Jiydakapa, Sovungarlik (hozirgi Samarqand, Toshkent ko'chalari) hamda Mulla Qirg'iz madrasasining shimol tomonidagi ko'plab katta-kichik ko'chalar kirgan. O'rta Osiyoning Toshkent, Qo'qon va boshqa ko'pgina Shaharalarida "Chorsu" deb atalgan joylar bo'lgani singari Namangan Chorsusining ham o'z tarixi bor. "Chorsu" forscha-tojikcha "*chor*" yoki "*chahor*" to'rt va "*su*" yoki "*so'l*" *taraf, tomon* degan ikki so'zdan iborat bo'lib, "*to'rt tomonga ketadigan yo'l*" yoki "*to'rt tarafga ketadigan yo'l*" degan ma'noni anglatadi. Yozma manbalarning guvohlik berishicha, Namangan shahri to'rt qismdan iborat bo'lib, bular yuqorida keltirilganidek, *Degrezlik, Labbaytog'a, Chuqurko'cha* va *Sardoba* dahalari deb yuritilgan. Mazkur jumalardagi "*daha*" so'zi fors-tojikcha bo'lib "*o'nlik*" degan ma'noni anglatadi, chunki har bir dahada kamida o'ntadan mahalla bo'lgan. Namangan Chorsusi ana shu to'rt dahaning savdo-sotiq, ilm-u hunar va madaniy markazi hisoblangan va ularni bir-biri bilan bog'lagan.

Har bir ko'chaning o'ziga xos nomi va u yerda istiqomat qiladigan hunarmandlari bo'lgan. Masalan, Jiydakapa ko'chasining ikki tomonida tandirchilar, kulollar, sandiqchilar, yigchilar, qisman temirchilarning ustaxonalari joylashgan. Bu ko'cha **Ko'zagarlik** deb ham ataladi.

Bordonqo'rg'on – shaharning shimolida, Shimoliy Farg'ona kanalining o'ng qirg'og'ida, Yangiqo'rg'on yo'li yoqasidagi joy nomi. Bu joy adirlik bo'lib, yer yuzasidan ancha balandda joylashgan. Bu adirlik haqida xalq orasida kinoyamuz naql yurardi: "*Bordonqo'rg'onga suv chiqadimi? desa, "Ha chiqadi" deya ber.*" Bu naql chinga aylanib o'tgan asr boshlarida Bordonqo'rg'onga suv chiqarildi va obod bo'ldi.

Bordonqo'rg'on *bordon* va *qo'rg'on* morfemalaridan iborat bo'lib, qo'shma tarkibli toponimdir. *Bordon* so'zi forscha bo'lib, *katta xurjun* degan lug'aviy ma'noni anglatadi. O'zbek tilida *bordon* so'zi quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1) *qobig'i olinmagan qamishdan bo'yraga o'xshatib to'qilgan qalin, dag'al to'shama;*

2) *shunday to'qimadan tayyorlangan maxsus qop, idish.*¹

Shuningdek, o'zbek tilida shu *bordon* asosidan yasalgan *bordon (qop)* singari, *semiz, gavdali odam* ma'nosida *bordonday,ordon to'shama* yoki *qopni to'quvchi* ma'nosida *bordonchi* so'zlari ham mavjud. Bizningcha, *bordon* so'zining *gavdali, baland ko'chma* ma'nolari toponimga lug'aviy asos bo'lgan.

Qo'rg'on so'zi ko'p ma'noli bo'lib, *dala joyda va umuman shahardan tashqarida atrofi devor bilan o'ralgan hovli-joy va uning ichidagi binolar (atrofi, odatda, bog', ekinzorlardan iborat bo'lgan)* ma'nosini ham anglatadi.² Toponimlar, xususan, oykonimlar tarkibida *shahar, qal'a, qishloq* ma'nolarida indikator sifatida kuzatiladi. Demak, *Bordonqo'rg'on* baland tepalikdagi hovli-joy, *yashash manzili* degan toponimik ma'noga ega.

Bordonqo'rg'on nomi “Shoh Mashrab qissasi”da ham qayd etilgan: *Bordonqo'rg'on* nomi “Shoh Mashrab qissasi”da ham qayd etilgan: O'n sakkiz yillik musofirlikdan Namanganga qaytib kelgan o'g'li shoh Mashrabning diydorini ko'rishga musharraf bo'lgan onai zori: “Ey bor Xudoyo, emdi omonat joni ol, sanga topshurdum, Allohu Akbar!” – deb jon bahaq taslim qiladi.

“Alqissa, shoh Mashrab onalarining qabrida qirq kun tilovoti Qur'on qilib, andin so'ng bir kecha yotib, istixora qilib ko'rdilarki, Buxoroda – madrasai Ko'kaldoshda Mavlaviy Sharif yetti tuman kishiga dars ayturlar. Shul buzrugni ziyorat qilmoqni ixtiyor qildilar. Bozor boshiga kelib, sho'ri fig'on qilib, bir necha g'azal o'qudilar:

Ishq o'tig'a o'rtanib, devona bo'lgan o'zginam,

Kuya-kuya kul bo'lub, o'tdek tutashgan o'zginam...

Nolavu ohim bila do'zaxni kuydirsam kerak,

Ham behishtu jannati mavoni kuydirsam kerak...

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-ж. – Б. 315.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 5-ж. – Б. 416.

Bordonqo'rg'onga chiqib, atrofi javonibga nazzora qilib, Buxoro tarafig'a ravona bo'ldilar".¹

Ko'nychilik – Qo'qon shahridagi mahallalardan biri. Teri oshlab undan charm tayyorlash bilan shug'ullanuvchi kasb egalari ko'nchi nomi bilan atalgan. "Ko'nychilik O'rta Osiyo shahar va qishloqlarida rivoj topgan. Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarida, Xorazm, Farg'ona vodiysida XX asrning boshlarida ko'pchilik do'konlari mavjud bo'lgan. Ularda qoramol, qo'y, echki, tuya terisidan turli navlardagi ko'n tayyorlangan. Poyafzal, telpak, ot-ulov abzallari, qayish, qin kabilar tayyorlashda ko'p asosiy material bo'lgan". Ko'nychilik mahallasida ko'nychilar istiqomat qilganlar va shu kasb bilan shug'ullanganlar. Mahallaga berilgan nom ana shu kasb-hunarga nisbatdandir.

Guzar so'zi *o't* ma'nosini anglatuvchi tojikcha *guzashtan* fe'lining *guzar* hozirgi zamon asosiga teng; otlashib asli *o'tish joyi* degan ma'nosini anglatadi.² Guzar entsiklopedik lug'atlarda quyidagicha izohlanadi:

- 1) shahar yoki qishloqning uch ko'cha, to'rt ko'chali yoki choyxona va magazinlar, baqqolik va qassoblik do'konlari bo'lgan gavjum va serqatnov, obod joyi;
- 2) Buxoroda mahalla, kvartal;
- 3) Xorazmda soydan qayiqqlarning o'tish joyi va odam o'tishi uchun qo'yilgan maxsus qayiq.³

Demak, *o'tish joyi; ko'cha; mahalla* ma'nolarini anglatuvchi *guzar* so'zi forschadan o'zlashgan bo'lib, hozirda o'zbek adabiy tili va shevalarida ma'no doirasi kengayib, *qishloq va mahallalarning chorrahalarida joylashgan, choyxonalari, baqqolik va qassoblik do'konlari bo'lgan markaziy obod, gavjum joyi; xalq og'zaki ijodida yo'l; ayrim shevalarda daryodan, soydan qayiqqlar o'tadigan joy; kechik; mahalla* ma'nolarida qo'llanadi.⁴

Namangan shevalarida *guzar* asosan *qishloq va mahallalarning chorrahalarida joylashgan, choyxonalari, baqqolik va qassoblik do'konlari*

¹ Шоҳ Машраб қиссаси. – Тошкент, 1998. - Б.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Унитверситет, 2009. – Б. 65.

³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси.- Тошкент, 2002. – 3-ж. – Б. 110.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-ж. – Б. 516.

bo'lgan markaziy obod, gavjum joyi ma'nosida qo'llanadi. Namagan shahri toponimiyasida bir qator mikrotoponimlar tarkibida aynan shu ma'noda kuzatiladi: Atanganguzar, Donovoyguzari, Orifboyguzari, Sumalakguzari, To'qmoqguzari, Qoziguzar, Kurashxona guzari, Ibrohim guzari, Qoziguzar, Orifboy guzari, Ishoq cho'yan guzari, Atanganguzar, Pastguzar.

Isfahon guzari – shaharning eng obod joylaridan biri. Mahalliy aholi nutqida, manbalarda nom *Isfaxon, Isparxon* variantlari kuzatiladi.¹

Nom haqida turli talqinlar mavjud:

1. Erondagi qadimiy shahar *Isfahon* nomidan olingan, ya'ni ko'chma toponim.
2. *Ispaxon mis idshlar yasaladigan joy* ma'nosini anglatadi. Bu guzarda miskarlik do'konlari bo'lgan, hatto misdan chsalgan oftoba (obdastaning sheva varianti)ning bir turi *isfaxoniy* deyilgan. Shularga nisbat berib, guzar *Isfarxon* atalgan.

Isfahon Eronning markaziy, ilgari poytaxt bo'lgan shaharlaridan biri. Shuningdek, o'zbek tilida *isfahon, isfahoniy* so'zlari ham qo'llanadi. *isfahon* so'zi *Isfahon shahri po'latidan yasalgan qilich, o'tkir qilich, isfahoniy esa Isfahonga mansub, Isfahonda yoki Isfahon po'latidan yasalgan* ma'nolarini anglatadi.² Bizningcha, namanganlik temirchilar ham isfahon po'latidan foydalangan, balki isfahoniy qilichlar yasagan bo'lsalar kerak. Shunga nisbat berib, miskarlar va temirchilar guzari *Isfahon* deb atalgan. Demak, toponimni manbalarda *Isfahon* tarzida yozilishi to'g'ri bo'ladi.

Kurashxona – Namangan shahridagi ko'cha, daha nomi. 1916-yilda barcha joylarda bo'lgani kabi Namangan shahrida ham mardikorlikka olishga qarshi harakatlar keng avj oladi. 1916-yilning 2-iyulida (boshqa o'rinda 11-iyulda) Shaharning mana shu hududida bir necha ming kishilik qo'zg'olon ko'tariladi. Qo'zg'olonchilar mardikorlikka safarbar qilinuvchilar ro'yxatini yirtib tashlashni talabi bilan politsiya va soldatlarga qarshi yurish qiladilar. Qo'zg'olon

¹ Қаранг. Юсупов И. , Мирзалиев Э. Наманган шаҳри тарихидан лавҳалар. – Наманган, 2010. - Б. 41.

² Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-ж. – Б. 240.

shafqatsizlarcha bostiriladi. Buning natijasida 70 nafarga yaqin kishi yarador va nobud bo'ladi. Qurolsiz aholini ko'pi o'ldirilgan, ayrimlari Sibirga surgun qilingan, 40 dan ortiq kishining qoni to'kilgan.¹ Boshqa manbalarga qaraganda, 69 kishi o'lgan va yarador bo'lgan, yaradorlar orasida uch ayol va bir bola bo'lgan.² Yana bir ko'rsatilishicha, aholidan ikki kishi halok bo'ladi va 64 kishi yaralanadi.³ Qo'zg'olonchilarning ayrimlari Sibirga surgun qilingan. Ikki soat davom etgan mazkur qo'zg'olon xalq hayotida o'chmas iz qoldirgan. Ta'kidlash joizki, mazkur qo'zg'olon 1916-yildagi xalq qo'zg'olonining ilk nuqtasi, markazi bo'lgan. Ana shu tarixiy voqeaga nisbat berib, daha *Kurashxona* deb atalgan. Keyinchalik bu hududdagi mahalla ham shunday atalgan va hozirga qadar shunday ataladi.

Demak, shahar aholisining o'tmishi, tarixi, yashash tarzi, erk va ozodlik uchun kurashi – keng ma'nodagi ijtimoiy-maishiy hayoti joy nomlarida ham o'z ifodasini topgan va davrlar davomida saqlanib kelmoqda.

Sumalakguzari – Namangan shahrining Taxtakoprik dahasidagi qadimiy joy nomi.

Sumalak guzarining nomlanishi haqida bir necha qarashlar mavjud:

1. Ayrim mahalliy keksalarning fikricha, guzar qadimda asfaltlanmagan, notekis, Chuqur hududda joylashganligi bois yog'ingarchilikda, ayniqsa, bahor va kuz faslida ko'cha yuzasida sumalakka o'xshash loyqa suvlar, loy bo'lgan. Shunga nisbat berib hududdagi mahallaning choyxonalari, baqqolik va qassoblik do'konlari bo'lgan markaziy joyi *Sumalakguzari* deb atalgan.

2. O'tmishda mahallaning markaziy hududi bo'lganligi sababli bahor faslida asosan ayollar, ba'zan erkaklar bilan birgalikda shu joyga kelib xalfana yo'li bilan sumalak pishirishgan. Shunga nisbat berib, bu hududga *Sumalakguzari* nomi berilgan.

Bizningcha mana shu qarash asosli. Demak, **Sumalakguzari** nomi *sumalak* va *guzar* ma'noli qismlaridan tarkib topgan bo'lib, *sumalak pishiriladigan mahallaning choyxonalari, baqqolik va qassoblik do'konlari bo'lgan markaziy*

¹ Аср солномаси// Наманган садоси, 2000, 8 декабрь.

² Юсупов И., Мирзаалиев Э. Наманган шахри тарихидан лавҳалар. – Наманган, 2010. – Б. 50-51.

³ Бозорова М.Т. Наманганда 1916 йилги миллий-озодлик ҳаракати // Наманган тарихидан лавҳалар. – Наманган, 2008. – Б. 85. ЎзР МДА И-13-фонд, 1-рўйхат, 734-иш, 6-варақ.

obod, gavjum joyi; Sumalakguzari mahallasi esa shunday guzar atrofida joylashgan aholi manzili degan toponimik ma'noga ega.

Mazkur ob'ektda guzar maqomi yaqqol ko'zga tashlanadi, hududda bir necha do'konlar, qassobxona bor, doimo mahalliy nonvoylar savdo qilib o'tiradilar. Guzar hududida joylashgan choyxona, mahalla ham unga nisbat berib, *Sumalak* deb ataladi. Mahalla odamlari guzarga chiqib choyxo'rlik, savdo-sotiq qiladilar, suhbatlashadilar, hordiq chiqaradilar, to'y-xasham, ma'raka, ehson kabi tadbirlarga to'planadilar.

Sardoba Namangan shahridagi qadimiy mahallalardan biri. **Sardoba** aslida ilmiy manbalarda izohlanishicha, sun'iy suv inshootidir. Sardoba so'zi fors-tojikcha bo'lib, «**sovuq**», «**muzdek**», «**salqin**» ma'nolarini anglatuvchi **sard** so'ziga suv ma'nosidagi **ob** so'zini va unga narsa-predmet oti yasovchi -a qo'shimchasining qo'shiluvidan yasalgan: *sard+ob+a > sardoba*. O'zbek tilidagi lug'atlarda sardoba «*usti gumbaz shaklidagi g'isht qurilma bilan berkitilgan sun'iy hovuz*» deya izohlangan.¹

E.M.Murzaev ko'rsatishicha, u xuddi shunday ma'nolarda *sardoba*, *sardob(a)* shakllarida tojik, turkman tillarida ham qo'llanadi: Tojikistondagi *Sardobsoy*, *Sardob*, Turkmanistondagi *Chagan-Sardoba*, Rossiyaning Penza viloyatidagi *Serdobsk*, *Serdoba*, *Malaya Serdoba* toponim va gidronimlari kabi.² Sardoba indikatori *Mirzasardoba* (Sir. v. Oqoltin t.), *Yog'ochli sardoba* (Sir. v.) kabi tarixiy gidronimlar tarkibida kuzatiladi. Mazkur qadimiy gidronimlar Sirdaryo tarixi haqida guvohlik beruvchi yodgorliklardir.

O'tmishda suv tanqis bo'lgan, oqar suvi bo'lmagan joylarda yomg'ir va qor suvlarini to'plash uchun yerni chuqur qilib qazib, ba'zan ostiga pishiq g'isht, tosh terib, atrofi maxsus devor bilan o'ralgan, ko'pincha usti, ya'ni og'zi maxsus moslamalar bilan yopilgan, suv oqib tushishiga moslangan maxsus teshiklari (mo'risi) bo'lgan va suvidan foydalanish uchun odam kirib chiqishiga moslangan eshigi hamda zinasi bo'lgan gumbaz shaklidagi suv havzasi sardoba deb atalgan.³

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: Рус тили, 1981. – II т. – Б. 22.

² Мурзаев Э.М. Юкорида кўрсатилган луғат, 497-бет.

³ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – Б. 165.

Namangan shahri markazida ham qadimda sardoba bo'lgan. Ibratning «Farg'ona tarixi» asarining «Tarixi Namangon» bobida bu haqida quyidagicha ma'lumot beriladi: «...Buxoro xonlaridan Abdullohxon bu Farg'ona taraflariga kelib, har yerga goh sardobalar kavlab, saqqoyi mo''miniga chohlarni tepasiga gumbazlar qilib, ko'b xalqg'a naflik ishlarni qilgan xon ekan. Ul kishi bul Namangonning yeriga kelib, alholda sardoba degan madrasa bordur, // bir Chust va bir aminlik mahalladur, ul yerga tushub, darhol sardoba kavlatib, necha kunlar tutub, bir tarafi daryo va bir taraf tog' havosi yaxshi uchun bu yerga bir shahar bino qilmoq bo'lub o'z ichlaridan bir og'oliq mansabida turgan kishini amr qilib, shahar qilmoq bo'lganda, o'shal yerning daryo tarafi butun sho'r ko'l bo'lub yotgan tuz ekan...».

Olim boshqa bir o'rinda: «Namangan tarixi Abdullohxon tarixidur. Abdullohxonni tarixi «zamona xarob»dur, ya'ni to'qqiz yuz oltinchi hijriyda bo'lubdur. Bu Namangan to'rt mahalla bo'lub, birinchi mahalla Sardoba mahallasidurki, avvali Abdulloh sardoba bino qilgan yeridur», – deb yozadi.¹ Ibratning ko'rsatishicha, Namangan shahri tarixi Buxoro xoni Abdullohxon tarixi bilan boshlangan. U hozirgi Namangan shahriga kelib, hijriy taqvimga ko'ra 906 yilda, milodiy sana bilan 1500 yillarda sardoba qurdirgan, biroq bu sardoba bizgacha yetib kelmagan, buzib yuborilgan. Ana shu sardobaga nisbat berib, uning atrofidagi Namanganning eng katta to'rt mahallasidan biri **Sardoba** va shu joydagi madrasa (hozirda masjid) **Sardoba** deb atalgan. Bu nom hozirgacha qo'llanib kelinmoqda. Demak, Namangan shahrining Sardoba mahallasi 500 yildan ortiq tarixga ega bo'lib, hudud uchun xarakterli bo'lgan suv inshootiga nisbat berish asosida nomlangan. Shu boisdan gidrooykonimlar sirasiga kiradi.

Hozirda shu hududda barpo etilgan, Namangan shahridagi eng katta bozorga ham **Sardoba** nomi berilgan. Namangan shevasida Sardoba gidrooykonimining **Sardava, Sarduva, Saddava** kabi fonetik variantlari keng qo'llanadi: *Saddava // Sarduva bozori, Sarduva mahallasi* kabi.

¹ Ибрат. Тарихи Фарғона. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 325-326.

D.Abdurahmonovning ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonimizning Sirdaryo viloyatidagi Oqoltin tumanining markazi, Samarqand viloyatining Paxtachi tumanidagi bir qishloq, Qashqadaryoning Beshkent tumanidagi ayrim joylar ham Sardoba deb ataladi. Dalillardan anglashiladiki, bunday oykonimlar aholi manzillariga nom berishda orinter (mo'ljal) vazifasini bajaruvchi, hudud uchun xarakterli ob'ektlarni motiv qilib olish mahsulidir.

Kappon – Namangan shahridagi Yangiariq kanalidan suv olib, Namangan tumaniga oquvchi ariq nomi.

Kappon so'zi fors-tojikcha bo'lib, «*don, g'alla bozori*» degan ma'nolarni anglatadi.¹ Aslida kappon so'zi «*og'ir narsalar tortiladigan bir pallali ulkan tarozi*»ni anglatgan. Kappon g'alla bozoriga o'rnatilib, unda bir necha qop g'alla tortish mumkin bo'lgan.

Keyinchalik shunday tarozi o'rnatilgan, usti tim don bozori, g'alla, bilan savdo qilinadigan rasta ham kappon deb atalgan. Hozir bozorda, umuman, g'alla sotiladigan joy kappon deyiladi.² Demak, «*bir pallali ulkan tarozi*» ma'nosini anglatuvchi *kappon* apellyativi til taraqqiyoti davomida metonimiya asosida «*don bozori*» tushunchasini ham anglatadigan bo'lgan.

Gidronimga ana shu kappon apellyativi asos bo'lgan. Ariq Namangan shahridagi kappon, ya'ni don bozori hududidan oqib o'tganligiga ko'ra shunday nomlangan. Anglashiladiki, ariq o'zi oqib o'tgan hududga, ya'ni Kappon bozoriga nisbat berish asosida nomlangan.

Kallaxo'r mahallasi – Naamangan shahridagi “Lola” ko'chasining eski nomi. Bu yer aholisi kalla go'shtini yaxshi ko'rgan, ko'p iste'mol qilgan. Buning boisi mahallada qassoblar ko'p bo'lgan, shuning uchun “Kallaxo'r” nomini olgan.

Laylak uya qishlog'i – Namangan shahridagi Chorsu mahallasidagi joy. Bu nom hududdagi tut daraxti ustiga joylashgan laylak uyalarigaga nisbat berib shunday atalgan.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: Рус тили, 1981. – 1-т. – Б. 368.

² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 4-т. – Б. 447.

Maddoh mahallasi – Namangan shahridagi hozirgi Ozod mahallasi, ilgari Maddoh deb atalgan. Aytishlaricha, ilgari bu yerda mozar va machit bo'lib, unda maddohlar faoliyat ko'rsatganlar. Nomni shevada Maddah tarzida talaffuzi kuzatiladi. Namangan toponimiyasini o'rgangan mutaxassislar ham shu tarzda qayd etganlar.¹

Mazkur toponimga *maddoh* shaxs oti lug'aviy asos bo'lgan. *Maddoh* so'zi etimologik jihatdan arabcha bo'lib, *madh* asosidan yasalgan, *maqto'v*, *ta'rif* degan lug'aviy ma'nolarni anglatadi.

O'zbek tilida *maddohlik* so'zi ham kuzatiladi. Maddohlik musulmon xalqlarida tarqalgan an'anaviy aytim yo'llaridan. Mavzu jihatidan asosan Muhammad payg'ambar, Hazrat Alining hayoti, ko'rgan-kechirganlari, yurish-turishi va fe'l-atvorlari haqida badiha tarzida yaratilgan diniy bayt, g'azal, hikoyatlardan iborat bo'lgan maddohlik yo'llarini 2–3 kishidan iborat maddohlar guruhi Ramazon hayiti va boshqa kunlarda bayram-sayllarda, bozor maydonlarida keng xalq ommasini jalb etib ijro etishgan. Ta'kidlanishicha, aruz vaznlarida bitilgan she'rlarni baland pardalarda, musiqa cholg'u asboblari jo'rligisiz, muayyan qoidalarga asoslangan ohanglarda ravon va ifodali (qiroat bilan) o'qish maddohlikning asosiy xislatlari bo'lgan. Maddohlik yo'llari butun O'rta Osiyoda keng tarqalgan diniy aytim yo'llaridan bo'lib, ayniqsa, Buxoro shahri va uning atrofi ijrochilik maktablari mashhur bo'lgan. Buxoroda XX asrning birinchi choragida ham *Maddoh* mahallasi bo'lgan.² Ma'lumotlardan anglashiladiki, biz yuqorida keltirgan mahalla ham ana shunday maddohlar guruhi yashaganligiga nisbat berib, Maddoh deb atalgan. Demak, toponim *maddohlar yashaydigan joy* degan toponimik ma'noga ega bo'lgan. Keyinchalik ijtimoiy-siyosiy omillar ta'sirida *Ozod* nomini olgan, iste'moldan chiqib ketgan.

Sirli machit – Namangan shahridagi Uychi ko'chaning eski nomi. Bu nom masjidga nisbatan berilib, shunday nomlangan.

¹ Турдалиев Б., Нуъмонов Т., Хайдаров А. Наманган вилояти топонимларидан материаллар. – Наманган, 1995. – Б. 34.

² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2003. – 5-ж. – Б. 374.

Sirli masjid ekklezionimining lug'aviy asosini tashkil etuvchi sirli so'zi o'zbekcha bo'lib, *sir* (*yaltiroq mineral yoki moybo'yoq*) yoki *emal bilan qoplangan, sirlangan*,¹ *masjid* so'zi esa *sajda qilinadigan, namoz o'qiladigan joy; ibodatxona* degan ma'noni anglatadi.² Demak, nom *sirli, sirlangan, ya'ni bo'yoq bilan ishlov berilgan ibodatxona* degan toponimik ma'noga ega. Ko'chada ana shunday masjid joylashganligiga ko'ra u shunday atalgan.

Tikka mahalla – Namangan shahridagi qahramonlardan biri bo'lib, qadimdan shunday nomlangan. Aytishlaricha, qadimda bu yerda taka ko'p boqilgan.

Xizirbuva mahallasi – bu mahalla Namangan shahrining Shohimardon ko'chasida joylashgan. Hozirgi 2-maktab o'rni Xizir buva nomi bilan yuritilgan. Chunki bu yerdagi machit va mozor Xizirbuva nomi bilan atalgan. Shunga nisbat berib Xizirbuva deb atalgan.

Sharifsho'r mahallasi – Namangan shahrining Toshkent ko'chasidagi mahallalardan birining nomi. Bu mahallaning hozirgi nomi Mopr. Bu yerda ilgari Sharif degan sho'r laqabli kishi yashagan ekan. Shu kishiga nisbat berib shunday nomlangan ekan.

Shokaromat – Namangandagi Samarqand ko'chasi ilgari Shokaromat deb atalgan. Stadion yonida ilgari shu nom bilan atalgan. Shakoramat machiti bo'lgan. Bu yerlar Shakaromat degan boyning yerlari bo'lgan ekan.

Xalfa chaqqon chillaxonasi – Namangan shahrining kurashxona dahasidagi qadimiy me'moriy obidalaridan biri. Mazkur yodgorlik nomi antroponim – nom, laqab va indikatorlardan tarkib topgan qo'shma tarkibli ekklezionim. U XVII asrning ikkinchi yarmida yashagan namanganlik ilmli avliyo, epchil va chaqqon, shu bois Xalfa chaqqon laqabini olgan kishi nomiga nisbat berib, shunday atalgan. Nom *Xalfa chaqqon laqabli kishiga qarashli chilaxona, ya'ni chillada o'tirish joyi* degan ma'noga ega. Demak, nom tarkibidagi *chillaxona* so'zi ekklezionimik indikator sifatida antroponimni toponimlikka xoslash bilan birgalikda uni turini,

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - 3-ж. – Б.523.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - 2-ж. – Б.550.

ya'ni diniy urf-odatni bajarish joyi ekanligini ifoda etmoqda. Ekklezionimni manbalarda *Halfa chaqqon chillaxonasi* tarzida, ya'ni bo'g'iz tovushini ifodalovchi h harfi bilan xato yozish kuzatiladi, imlo qoidalariga ko'ra, nom yuqoridagi berganimizdek yozilishi lozim.

3.2. Mikrotoponimlarning strukturasi va modellari

Toponimlarning tuzilishiga ko'ra turlari, toponimik model tiplari o'zbek tilshunosligidagi toponimik tadqiqotlar doirasida N. Oxunov, Z. Do'simov, T. Nafasov, L. G. Karimovalarning ishlarida o'rganilgan.¹ Mazkur tadqiqotlarda toponimlarning morfologik tuzilishiga ko'ra turlari talqini borasida bir necha xil qarashlar kuzatiladi.

Z. Do'simov toponimlarning tuzilishiga ko'ra tasnifini **struktural-tipologik tasnif** deb ataydi va bu jihatdan toponimlarni quyidagicha guruhlaydi:

1. Affikssiz toponimlar va tub nomlar.
2. Affiksal toponimlar yoki yasama nomlar..
3. Prefiksal toponimlar.
4. Indikatorli toponimlar yoki toponim-kompozitlar.

Muallif izohicha, bunday nomlar o'ziga ob'ekt yoki uning biror xususiyatini ko'rsatuvchi toponimik indikatorlarni birlashtirgan holda keladi: *Bekobod, Uzunko'l, O'rta Chirchiq* kabi. Uningcha, bu guruhga tojikcha izofali nomlarni ham kiritish mumkin: *Shahrisabz, Denov (Dehinav), Kitob (Kifti ob)* kabi.

5. Birikmali toponimlar.

Z. Do'simov ko'rsatishicha, bunday nomlar butun turkiy tillarga xos bo'lib, ob'ekt haqidagi biror hodisani yoki uning xususiyatini ifodalaydi: *Qo'yqirilgan qal'a, Odam o'lgan ko'l, Qizketgan (kanal)* va h.k.²

¹ Охунов Н. Қўқон группа районлари топонимиясининг баъзи грамматик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент: Фан, 1971. – С. 116-122; – Ўша муаллифлар. Қўшма топонимлар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. – Тошкент, 1975. – С. 212-218; Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 43-59; Нафасов Т. Сон+от конструкцияли топонимлар // Қарши Давлат педагогика институти профессор-ўқитувчилари илмий конференциясининг тезислари. – Қарши, 1967. – Б. 65-66; Каримова Г.Г. Топонимларнинг морфологик тузилиши (Шимолий ўзбек шевалари материали асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969. – № 5. – С. 80-81

² Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. – № 1. – Б. 19-20.

N. Uluqov fikricha, o'zbek toponimikasidagi toponimlarning morfologik tuzilishiga doir tasniflarni yondashuv asosi va xarakteriga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. Yasalish usuli va modeliga asoslangan tasniflar.
2. Yasovchi vositalar va tarkibiy tuzilishiga asoslangan tasniflar.
3. Tarkibi va tarkibidagi lug'aviy birliklarga asoslangan tasniflar.¹

Yuqoridagi tasniflarga asoslangan holda Namangan shahri mikrotoponimlarining tarkibiy tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Sodda tarkibli mikrotoponimlar.
2. Qo'shma tarkibli mikrotoponimlar.
3. Murakkab tarkibli mikrotoponimlar.

Toponimlar boshqa til birliklari kabi muayyan qoliplar asosida hosil bo'ladi. Ana shunday qoliplar **toponimik modellardir**. Mikrotoponimlarning yuqoridagi har bir turi ma'lum modellar asosida yuzaga keladi.

Sodda tarkibli mikrotoponimlarning lisoniy tarkibi birgina asosdan, ya'ni sodda leksemadan iborat bo'ladi.²

Sodda tarkibli mikrotoponimlarning apellyativ yoki atoqli otdan hosil bo'lganligiga ko'ra quyidagi modellari kuzatiladi:

1) apellyativ leksika = ot: *Chinor, Bahor, Ishchi, Shifokor, Tadbirkor, Do'stlik, Ixlos, Sumbula, Me'mor* (Nam. sh.) kabi;

2) atoqli ot = ot: *Alpomish, Furqat, Mashrab, Turkiston* (Nam. sh.) kabi.

Tranسونimizatsiya asosida atoqli otlardan, xususan, antroponimlar (kishilarning ismi, familiyasi, ota ismi, laqabi)dan hosil bo'lgan: *Navoiy, Bobur, Nodira, Huvaydo, Humoyun, Ulug'bek, So'fizoda* kabi sodda mikro-toponimlar ham kuzatiladi.

O'z ichida Namangan shahar sodda tarkibli mikrotoponimlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

¹ Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008 – Б. 178.

² Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.69.

1) tub tarkibli sodda oykonimlar: *Haqiqat, G'uncha, Umid, Chinor, Obod, Ozod, Bahor, Bo'ston, Go'zal, Chorsu, Lola* kabi;

2) yasama so'zlar zaminida shakllangan sodda oykonimlar: *Bunyodkor, Nurchi, Oromgoh, Guliston, Tikuvchi, Ishchi, Yong'ozor, O'rikzor, Olvalizor, Ziyokor, Anorzor, Gulzor, Gulobod* kabi.

Ko'rinadiki, sodda tarkibli mikrotoponimlarning bu turi asosan ot-affiks modelida bo'lib, morfologik jihatdan o'rin-joy, kasb otlaridan tarkib topgan.

Toponimiyadagi konversiya usuli bilan affiksatsiya usulidagi yasalishni aralashtirish ko'p hollarda toponimlarning motivlarini noto'g'ri talqin qilishga olib keladi.¹ Yuqoridagi mikrotoponimlar konversiya usuli bilan, ya'ni tildagi mavjud yasama so'zlarning joy nomiga o'tishi – atoqli ot vazifasini bajarishga o'tishi asosida yuzaga kelgan.

Sodda tarkibli mikrotoponimlarning morfologik asosiga ko'ra quyidagi modellari mavjud:

1. Ot apellyativlardan tarkib topgan mikrotoponimlar: *Ishonch, Sohibkor, Olvalizor, To'quvchi, Bug'doyzor, Langar, Tokzor, Binokor, Ijodkor* kabi.

2. Sifat apellyativlardan tarkib topgan mikrotoponimlar: *Madaniy, Ozod, Obod, Zarbdor, Baxtiyor, Go'zal, Sokin, Oydin, Ozod, Kamtar* kabi.


3. Fe'l apellyativlardan tarkib topgan mikrotoponimlar: *Ulg'ayish* kabi.

Keltirilgan dalillar salmog'idan ham ko'rinadiki, sodda tarkibli mikrotoponimlarning salmoqli qismiga ot, qisman sifat va juda kam miqdorda fe'l apellyativlar morfologik asos bo'lgan. Bu, albatta, ana shu so'z turkumlarining morfologik tabiati, lug'aviy ma'nolari bilan bog'liq.

Tarkibi birdan ortiq lug'aviy asosdan iborat joy nomlari **qo'shma tarkibli mikrotoponimlardir**. Qo'shma tarkibli mikrotoponimlar kompozitsiya usuli bilan yasaladi.

¹ Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. — Тошкент, 2010 — Б. 204.

Qo'shma tarkibli mikrotoponimlarning morfologik asosi va shakllanish modeliga ko'ra quyidagi turlari kuzatiladi:



3-rasm. Namangan shahar mikrotoponimlarining tuzilish modellari

I. Ot+ot modelidagi qo'shma tarkibli mikrotoponimlar: *Gulbog', Qadamjoy, Kurashxona, G'ishtko 'prik, Taxtako 'prik, Jiydakapa* kabi.

II. Sifat + ot modelidagi qo'shma tarkibli mikrotoponimlar: *Yangihayot, Yangitong, Buramatut, Yangiariq, Yangiqurilish* kabi.

III. Ot + sifat modelidagi qo'shma tarkibli mikrotoponimlar. Bunday toponimlar **ot + sifat**, ya'ni **ot+obod formanti** modelidagi joy nomlari eng ko'p tarqalgan. *Obod* so'zi tojikcha *ob* – *suv*, *obod* – *suvli*, *suv yetarli joy* degan ma'noni bildiradi. Bu so'z shahar, qishloq, umuman aholi manzilgohlariga nisbatan ishlatiladi. Asosiy ma'nosi "gullagan" demakdir.¹

Namangan viloyati oykonimiyasida **ot+obod formanti** modelidagi oykonimlarni o'z ichida quyidagicha guruhlash mumkin:

¹ Охунов Н., Ахмадалиев Ю. Фарғона вилояти ойконимларининг номланиш хусусиятлари. – Фарғона, 2010. – Б. 29.

a) turdosh ot + obod formanti modelidagi qo'shma tarkibli mikrotoponimlar: *Davlatobod, Islomobod, Nurobod, Gulobod, Mehnatobod, Dehqonobod, Sohilobod* kabi;

v) atoqli ot + obod formanti modelidagi qo'shma tarkibli mikrotoponimlar: *Hasanobod* (Nam.sh.) kabi.

Keltirilgan dalillardan ko'rinadiki, shahar mikrotoponimiyasida *obod* tarkibli nomlar ko'p. Bu hozirgi o'zbek toponimikasida, jumladan, hudud toponimiyasida *obod* formanti bilan, xususan, **ot+obod formanti** modelida aholi manzillari, xususan, mahalla va ko'cha nomlari yasash faolligini ko'rsatadi.

IV. Son + ot modelidagi qo'shma tarkibli mikrotoponimlar: *Yakkasada, Mingterak, Mingchinor, Uchyog'och* kabi.

Murakkab tarkibli mikrotoponimlar. So'z birikmasi va gap shaklidagi nomlar murakkab tarkibli mikrotoponimlardir: *Mustaqillikning 5 yilligi, Mustaqillikning 10 yilligi Xalqlar do'stligi* kabi.

III bob bo'yicha xulosalar

1. Mikrotoponimlarning etimologik tahlilida xalq etimologiyasi bilan bir qatorda asosan nomning atalish motivi, lug'aviy asosi tahliliga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

2. Shahar mikrotoponimlarining yuzaga kelishida, asosan, ot, sifat va son turkumiga mansub apellyativlar, jumladan, toponimik indikatorlar asosida hosil qilingan nomlar salmoqli o'rin tutadi.

3. Joylarni, jumladan, aholi manzillarini nomlashda hududlarda muayyan andoza va qoliplarga amal qilinishi kuzatiladi.

4. Hudud mikrotoponimlari tuzilish shakliga ko'ra asosan sodda va qo'shma tarkibli bo'lib, murakkab tarkibli oykonimlar sanoqli. Bu o'zbek tili toponimiyasi morfologik va yasalish jihatidan sayqallanganligini, ma'lum me'yor hamda qoliplarga tushganligini ko'rsatadi.

Umumiy xulosalar

Biz Namangan shahri mikrotoponimlarining tarixiy-lisoniy tadqiq etish jarayonida quyidagi umumiy xulosalarga keldik:

1. O'zbekiston toponimiyasida, jumladan, Namangan shahri mikrotoponimiyasida oykonimlar salmoqli o'rin tutadi. Aniqrog'i, toponimlarning boshqa turlariga nisbatan miqdoran ko'p. Bu, albatta, shahar aholisi salmog'ining ko'pligi, hududining kengligi bilan bog'liq.

2. Shahar mikrotoponimiyasidagi mahalla, ko'cha nomlarida – mahalliy xalqning uzoq asrlik madaniyati, ma'naviyati, tafakkuri va ishlab chiqarishi, xo'jalik tarzi, tabiatga munosabati aks etgan. Demak, mahalla va ko'cha nomlari aholi maskanlari tarixining sodda, ixcham lisoniy ifodasidir.

3. Mikrotoponimlar, xususan, urbonimlarning lisoniy tadqiqi o'zi nomlayotgan joy aholisining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy turmushi, yashash tarzi va takomili hamda hududning tabiati, geografiyasi, tarixi haqida boy ma'lumotlar olish imkonini beradi.

4. Namangan shahri mikrotoponimlari xalqchilik, soddalik, milliylik, mutanosiblik an'analari asosida shakllangan. Nomlarga ko'proq aholining ijtimoiy, iqtisodiy, qisman diniy, etnografik turmushni ifodalovchi apellyativlar lug'aviy asos qilib olingan.

5. Mikrotoponimlarining nominativ-motivativ tahlili mahalla va ko'chalarni nomlashda asosan shu hududga xos xarakterli belgi-xususiyatlar: aholining kasbi-kori, mashg'uloti va boshqalarlar e'tiborga olinishini, ko'proq tilning sofliги tamoyiliga asoslanishini ko'rsatadi.

6. Namangan shahar mikrotoponimlari tahlilidan ko'rinadiki, ob'ektlarni nomlashda motiv bo'lgan barcha belgi-xususiyatlar aniqlovchi (atribut) xarakterga ega bo'lib, o'zi ifodalayotgan joyni xarakterlaydi va boshqa shu xildagi ob'ektlardan farqlaydi.

7. O'zbek tilining onomastik sathida bir nomning ikkinchi bir nomga o'tishi – transonimizatsiya keng tarqalgan. Bu hudud toponimiyasiga ham xos bo'lib,

toponim, antroponimlardan va boshqa atoqli ot turlaridan yangi toponimlar hosil bo'lishi ko'p. Bu mavjud nomlarning, mikroolamlarning o'zaro bog'liqligi mahsulidir.

8. Mikrotoponimlar tuzilishga ko'ra asosan sodda va qo'shma tarkibli bo'lib, murakkab tarkibli nomlar sanoqli. Bu hudud toponimiyasi morfologik va yasaliş jihatidan ma'lum me'yor hamda qoliplarga tushganligini ko'rsatadi.

9. Shahar mikrotoponimiyasining lug'aviy asosi tahlil qilinganda arab, fors-tojik, mo'g'ul va sug'd tili unsurlari kuzatiladi.

10. O'zbekistonning istiqlol davri toponimik siyosati Namangan shahri mikrotoponimiyasining milliylashuvi va me'yorlashuviga asos bo'ldi, miqdoran boyishiga hamda nomlarning tarixiy shakl va variantlarini iste'molga qaytishiga xizmat qildi.

Адабиётлар рўйхати

1. Каримов И. А. Қонун ва адолат устуворлиги эркин ва фаровон ҳаёт кафолатидир// Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – Б. 11.
2. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 173 б.
3. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
4. Президент Ислом Каримовнинг “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожига роли ва аҳамияти” мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2014. 16. 05. – Б. 1-2.
5. Абдулла Жаббор. Наманган вилояти. Ихчам маълумотлар тўплами. – Наманган, 2011.
6. Абдуллаев О. Наманган вилояти (табиати, аҳолиси, хўжалиги). – Наманган, 1995. – 149 б.
7. Абдурахмонов А. А. Некоторые вопросы топонимика Казахстана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1954.
8. Акрамов З. М. Наманган. – Ташкент: Известия, 1955, I том.
9. Акрамов З. М. Наманганская область историко-географический очерк. – Ташкент, 1954.
10. Алиев А., Акрамова Х. Из наблюдений топонимов Наманганской области // Материалы по конференции ономастики Узбекистана. – Джизак, 1985. – С. 9-10.
11. Алиев А. Наманган топонимиясидан // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 3-9.
12. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.—Тошкент: Фан, 1983-1985. – I-IV жилдлар.

13. Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 64 б.
14. Бегматов Э. Истиқлол даври топонимик сиёсатининг илмий принциплари // Филология масалалари, 2004. – №4.
15. Бегматов Э. Ўзбек ономастикасининг галдаги вазифалари ва илмий муаммолари // Ўзбек филологиясининг долзарб масалалари: Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Наманган, 2006. – Б. 214-220.
16. Бегматов Э. Мустақиллик ва топонимия// Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. – № 5. – Б.10.
17. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – 103 б.
18. Девону луғотит – турк. Индекс – луғат / Ғ.Абдурахмонов ва С. Муталлибоев иштироки ва таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967. – 550 б.
19. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 174 б.
20. Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. – №1. – Б. 17-20.
21. Дўсимов З. Топонимлар номинациясида нисбийлик принциплари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1984. – №4. – Б.12-15.
22. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 104 б.
23. Жувонмардиев А. XVI-XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. – Тошкент: Фан, 1965. – 184 б.
24. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 336 б. + 32 б. Зарварақ.
25. Ибрат. Фарғона тарихи («Мерос» туркуми. Масъул муҳаррир, сўз боши муаллифи: Хуршид Даврон). – Тошкент: Камалак, 1991. – 327 б.

26. Ипак йўли афсоналари (жой номлари билан боғлиқ афсоналар). Тузувчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: М. Жўраев. – Тошкент: Фан, 1993. – 128 б.
27. Караев С. Ойконимия Узбекистана: Диссертация. д-ра. геогр. наук. – Ташкент, 1998.
28. Каримова Л.Г. Топонимларнинг морфологик тузилиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969. – №5. – Б.80-81.
29. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 3 томлик. – Тошкент: Ўз. ... Фанлар акад. нашр., 1960. – I т. – 499 б.
30. Мирзалиев Э.Ю., Бозарова М.Т. Наманганнинг XI аср охири – XX аср бошидаги социал-иқтисодий ва маданий ривожланиши. – Наманган, 1998.
31. Мирортиқ Мирабдулла ўғли. Жуғрофий атамалар луғати. – Тошкент: Фан, 1992. – 56 б.
32. Муҳаммаджонов Қ., Фахриддинов А. Яна Наманган топонимининг этимологияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1992. – № 6.
33. Namangan viloyati. Siyosiy-ma'muriy ma'lumotnoma karta. – Toshkent: Yergeodezkadastr, 2006.
34. Наманганская область: Справочная политико-административная карта. – Ташкент: Узгеодезкадастр, 1996.
35. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 290 б.
36. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Мухаррир, 2009.
37. Наманган вилояти//Ўзбекистон вилоятлари, Қорақалпоғистон (маълумотнома). – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1995.
38. Наманган вилояти қомуси сўзлиги. – Наманган, 1992.
39. Охунов Н. Жой номлари табири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 86 б.
40. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – 56 б.

41. Охунов Н. Ўзбекистон топонимияси. – Қўқон, 2005. – 91 б.
42. Охунов Н., Ахмадалиев Ю. Фарғона вилояти ойконимларининг номланиш хусусиятлари. – Фарғона, 2010.
43. Орипов Ў. А. Нурота тумани макро ва микротопонимиясининг лисоний таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2003. – 22 б.
44. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. 2-е изд., перераб и доп. – Москва: Наука, 1988.
45. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2003. – 600 б.
46. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
47. Турдалиев Б., Нуъмонов Т., Ҳайдаров А. Наманган вилояти топонимларидан материаллар. – Наманган, 1995. – 1-к. – 122 б.
48. Узоқов Ё., Алиев А. Наманган топонимикасидан // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1966.
49. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010.
50. Халилов Р. Топонимика. – Самарқанд, 2001.
51. Ҳудуд ул-олам. – Тошкент: O'zbekiston, 2008.
52. Эназаров Т. Ўзбекистондаги баъзи топонимларнинг этимологик талқини. – Тошкент: Университет, 2004. – 120 б.
53. Эназаров Т.Ж. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 56 б.
54. Янгиладанаётган Наманган. – Наманган, 2011.
55. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006 – 2008. – 5 жилдлик.
56. Ўзбекистон Республикасининг “Географик объектларнинг номлари тўғрисида”ги Қонуни. – Халқ сўзи, 2011, 13 октябрь, № 198. – Б. 1-3.

57. Кодырова Ш.М. Микротопонимы Ташкента: Автореферат дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1970.
58. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978.
59. Қораев С. Наманган вилояти топонимлари // Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 91-94.
60. Қосимов Й. Наманган воҳасини суғорилиш тарихидан. – Тошкент: Фан, 1988.
61. Ғуломов П. Жуғрофия атамалари ва тушунчалар изохли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.

**Namangan shahar mikrotoponimlari po'yxati
Ko'cha nomlari**

1. “Ozod” mahalla fuqarolar yig'ini

1. A.Yusupov
1. 2.S.Adashev
2. Bug'doyzor
3. Gulbog'
4. Chortoq
5. Murtazo eshon

6. ”Sohibkor” mahalla fuqarolar yig'ini

7. A.Vohidov
8. M.Egamberdiev
9. Ashxabod
10. Oydinko'l
11. Suvjivoz
12. Ipak yo'li
13. Xumdon

14. A.Beruniy mahalla fuqarolar yig'ini

15. S.Ayniy
16. Bunyodkor
17. J.Manguberdi

18. Avliyo domla mahalla fuqarolar yig'ini

19. Jiyyakapa
20. Langar

21. Mehribonlik mahalla fuqarolar yig'ini

22. Abay
23. Axsi
24. B.Naqshbandiy.
25. G'alaba
26. Ixlos
27. Oybek
28. Olmazor
29. To'raqo'rg'on
30. Mehmondo'st
31. A.Avloniy
32. A.Fitrat
33. H.Xorazmiy
34. Binokor
35. G'ayraty
36. Ko'klam
37. I.Gandiy
38. Mingterak
39. Tokzor
40. Zafar diyor

- 41. H.Olimjon
- 42. Shodlik

43. Atangan guzar mahalla fuqarolar yig'ini

- 44. Shifokor
- 45. Yuqori Bog'ishamol
- 46. Sohil bo'yi
- 47. Qozonbuloq

48. Axsikent mahalla fuqarolar yig'ini

- 49. B.Zokirov
- 50. Boychechak
- 51. Bulqsoy
- 52. Vodiy
- 53. Ziynat
- 54. I.Gandiy
- 55. K.Yormatov
- 56. M.Mansurov
- 57. R.Hamroev
- 58. U.Nosir
- 59. Habibiy
- 60. Yakkabog'

61. Mingterak mahalla fuqarolar yig'ini

- 62. Munojot
- 63. Saxovat
- 64. Parvoz
- 65. Turkiston
- 66. Huvaydo
- 67. Xumor
- 68. Sh.Burxonov.

69. Baynalminal mahalla fuqarolar yig'ini

- 70. Sumbula
- 71. Zafar berk ko'chasi
- 72. Zafar
- 73. N.Nomongoniy
- 74. To'raqo'rg'on

75. B.Eshon mahalla fuqarolar yig'ini

- 76. Bog'ishamol
- 77. Ko'zagarlik
- 78. Jiyyakapa
- 79. Samarqand

80. Bahor mahalla fuqarolar yig'ini

81. Atirgul
82. Qizil tirnoq
83. Gulyor
84. K.Otamirzaev
85. Me'mor
86. Namangansoy
87. Oydinko'l
88. Uychi
89. Shaldirama

90. Bo'ston mahalla fuqarolar yig'ini

91. Gulchi
92. Bobuoshoh
93. Toshkent
94. A.Shohimardonov
95. A.Navoiy

96. Alpomish mahalla fuqarolar yig'ini

97. L.No'monov
98. A.Jalilov
99. Axsi
100. Baxtiyor
101. G.Uzoqov
102. Buramatut
103. Gulzor
104. L.Olimiy
105. Nizomiy
106. Shabnam
107. Tallin
108. Termiz
109. Iroda
110. M.Raximov
111. Haqiqat
112. Hamza
113. Xiva
114. Yangiobod

115. Gulbog mahalla fuqarolar yig'ini

116. Gulbog'
117. Qizilrovot
118. Ko'hinur
119. Norin
120. Oltin-vodiy
121. Osuda
122. O'rikzor
123. Xurmozor
124. Chortoq

125. Guliston mahalla fuqarolar yig'ini

- 126. Takachi
- 127. Guliston
- 128. Otbozori
- 129. Sadriddin Ayniy

- 130. Go'zal mahalla fuqarolar yig'ini**

- 131. Ravnaq
- 132. Ravnaq -1

- 133. Do'stlik mahalla fuqarolar yig'ini**

- 134. Jonajon
- 135. J.Manguberdi
- 136. K.Mamarasulov
- 137. Sohilbo'yi

- 138. Zarafshon mahalla fuqarolar yig'ini**
- 139. Abay
- 140. Axi
- 141. Beruniy
- 142. Gulshan
- 143. Qiriqchinor
- 144. Ildam
- 145. Rayhon
- 146. To'raqo'rg'on

- 147. Isoqcho'yan mahalla fuqarolar yig'ini**

- 148. Boy
- 149. Cho'lpon
- 150. Sheroziy

- 151. Ittifoq mahalla fuqarolar yig'ini**

- 152. Birdamlik
- 153. Bog'dor
- 154. Boburshoh
- 155. G'.G'ulom
- 156. Shalola
- 157. Qalampirtepa
- 158. Jiydakapa
- 159. Sokin
- 160. A.Termiziy
- 161. Shayxzoda

- 162. Ishchi mahalla fuqarolar yig'ini**
- 163. A.Rahimov
- 164. A.Xo'jaev
- 165. Asalchi
- 166. Qozoqmaydon

167. Namangansoy
168. Hamroh
169. Sevinch
170. Temiryo'l
171. Chilikzor
- 172. Kurashxona mahalla fuqarolar yig'ini**
173. Fidokor
174. Oydin
175. G'uncha
176. A.Qahhor
177. Yangiariq
178. Lola
- 179. Madaniy mahalla fuqarolar yig'ini**
180. Zebiniso
181. Uychi
- 182. Madaniy maoruf mahalla fuqarolar yig'ini**
183. Chortoq
184. Norin
185. Bahmal
186. Adolat
187. Zaribdor
188. Nafosat
189. Maftunkor
190. Sadoqat
191. Sumalak
192. Taxtakoprik
193. Uychi
194. Ufq
- 195. Mashrab mahalla fuqarolar yig'ini**
196. Bunyodkor
197. Yog'du
198. Zilol
199. Obihayot
200. Istiqlol
201. A.Yassaviy
202. Sufiolloyor
203. I.Buxoriy
- 204. Mar'ifat mahalla fuqarolar yig'ini**
205. A.Shamilov
206. Obod
207. G'alaba
208. Qo'qon

209. T.Umirzaqov
210. Sh. Rizaev
211. Hamza
- 212. Mehnatobod mahalla fuqarolar yig'ini**
213. Baland ariq
214. Tafakkur
- 215. Mingchinor mahalla fuqarolar yig'ini**
216. Adham Ermatov
217. Anorzor
218. Zavqiy
219. Ziyokor
220. Irrigator
221. Orombaxsh
222. Samandar
223. Boqiy
224. T.Po'latov
225. Fayz
226. Qadrdon
- 227. Obihayot mahalla fuqarolar yig'ini**
228. K.Begzod
229. Temiryo'l
230. Ali Qushchi
231. Hamdo'stlik
232. A.Farg'oniy
233. Sirg'ali
234. Y.Rajabiy
235. Hurriyat
236. Amur Temur
237. Murabbiy
238. Zarqarnar
239. Nodim Namongoniy
240. Bayram
241. Lutfiy
242. Ibrat
243. Sheroziy
244. U.Nosir
245. Uchqun
246. Oynai jaxon
247. Shohruxobod
248. B.Mashrab
- 249. Obod mahalla fuqarolar yig'ini**
250. Orasta
251. Pillakash
252. Soli Adashev

253. Fidokor
254. Yangiariq
- 255. Ozod mahalla fuqarolar yig'ini**
256. Zirabuloq
257. Asadulla Xo'jaev
258. Namuna
- 259. Olvalizor mahalla fuqarolar yig'ini**
260. O'zbekiston
261. Shohimardon
262. Oqshom
263. Kamolot
264. Lomonosov
265. Nizomiy
266. Paxtakor
267. Firdavsiy
268. Yangi asr
- 269. Rafiq Mo'min mahalla fuqarolar yig'ini**
270. Guldasta
271. Misgar
272. Muhandis
273. Ogaxiy
274. Chkalov
275. Layli
276. Rohat
277. Boku
- 278. So'fizoda mahalla fuqarolar yig'ini**
279. Eski bo'yoqchi
- 280. Furqat mahalla fuqarolar yig'ini**
281. G'ayrat
282. Gullola
283. Shajara
- 284. Uchyog'och mahalla fuqarolar yig'ini**
285. Chamanzor
286. Dilshod
287. Koinot
- 288. Sharshara mahalla fuqarolar yig'ini**
289. Piskent
290. Qadriyat
291. Qora tut
292. G'azalkent

293. Sadarayhon
- 294. Yangi hayot mahalla fuqarolar yig'ini**
295. Bog'dod
296. Shijoat
297. Oyim
298. Chaman
- 299. Yangi yo'l mahalla fuqarolar yig'ini**
300. A.Tursin
301. O. Nisoriy
302. Feruz
- 303. Yangi qurilish mahalla fuqarolar yig'ini**
304. Sharq yulduzi
305. Ibn Sino
306. To'qmoq guzari
307. Quvonch
308. Qadriyat
309. Qahramon
- 310. O'zbekiston mahalla fuqarolar yig'ini**
311. Hikmat
312. Buramatut
313. Davlatabod
314. Moturudiy
315. Ijodkor
316. Iroda
317. L.Olimiy
318. Maqtumquli
319. Navkar
320. Navro'z
321. Oqoltin
322. Saodat
323. T.Malik
324. Ulg'ayish
- 325. Qizil ko'prik mahalla fuqarolar yig'ini**
326. Yong'oqzor
327. Paxtalikko'l
328. Uzumzor
329. Xazina
- 330. G'isht ko'prik mahalla fuqarolar yig'ini**
331. Dilorom
332. I.Mahdum
333. Usta Ro'zmatxon

- 334. G'uncha mahalla fuqarolar yig'ini**
335. Muso Jalil
336. Oydin
- 337. Gulpora mahalla fuqarolar yig'ini**
338. Suvjuvoz
339. Bazzoz
- 340. Haqiqat mahalla fuqarolar yig'ini**
341. Chilangar
- 342. Istiqlol mahalla fuqarolar yig'ini**
343. Ko'zgu
344. Bog'i eram
345. Mashxur
346. Nazargoh
347. Hasanobod
348. Kamalak
- 349. Tikuvchi mahalla fuqarolar yig'ini**
350. Diyonat
351. Shoyi
- 352. Yangi tong mahalla fuqarolar yig'ini**
353. Yor bo'yi
- 354. Nurabod mahalla fuqarolar yig'ini**
355. Sharq go'zali
356. Jambul
357. Osiyo
358. Ishonch
359. Nilufar
360. Nukus
361. Minora
362. Marjon
363. Chirchiq
- 364. Navro'z mahalla fuqarolar yig'ini**
365. Lolazor
366. Nihol
- Mahalla nomlari**
367. Mingchinor (Nam.sh.)
368. Alpomish (Nam. sh.)
369. Anorzor (Nam.sh.)

- 370. Atangan guzari (Nam.sh.)
- 371. Bahodireshon (Nam.sh.)
- 372. Bahor (Nam.sh.)
- 373. Bedapoya (Nam.sh.)
- 374. Beruniy (Nam.sh.)
- 375. Boylarboyi (Nam.sh.)
- 376. Bunyodkor (Nam.sh.)
- 377. Bo'ston (Nam. sh.)
- 378. Guliston (Nam. sh.)
- 379. Gulpora (Nam.sh.)
- 380. Gulshan (Nam.sh.)
- 381. Davlatobod (Nam.sh.)
- 382. Dambog' (Nam.sh.)
- 383. Dashtbog' (Nam.sh.)
- 384. Degrezlik (Nam.sh.)
- 385. Do'stlik (Nam. sh.)
- 386. Zarafshon (Nam. sh.)
- 387. Zarbdor (Nam.)
- 388. Zarkent (Nam. sh.)
- 389. Isoq Cho'yan (Nam.sh.)
- 390. Istiqbol (Nam. sh.)
- 391. Isfarxon (Nam.sh.)
- 392. Ishchi (Nam.sh.)
- 393. Kurashxona (Nam.sh.)
- 394. Ko'zagarlik (Nam.sh.)
- 395. Labbaytog'a (Nam.sh.)
- 396. Lo'limahalla (Nam.sh.)
- 397. Madaniy (Nam.sh.)
- 398. Madaniy-maorif (Nam.sh.)
- 399. Majnuntol (Nam.sh.)
- 400. Ma'naviyat (Nam.sh.).)
- 401. Ma'rifat (Nam.sh.)
- 402. Mehnatobod (Nam. sh.)
- 403. Mehribonlik (Nam.sh.)
- 404. Mingterak (Nam.sh.)
- 405. Mingchinor (Nam.sh.)
- 406. Mulla Bozor oxun (Nam.sh.)
- 407. Mustaqillik (Nam. sh.)
- 408. Mustaqillik 5 yilligi (Nam.sh.)
- 409. Navbahor (Nam. sh.)
- 410. Navro'z (Nam. sh.)
- 411. Nurobod (Nam. sh.)
- 412. Nurchi (Nam.sh.)
- 413. Obihayot (Nam.sh.)
- 414. Obod (Nam. sh.)
- 415. Ozod (Nam. sh.)
- 416. Olvalizor (Nam.sh.)
- 417. Oribboy guzari (Nam.sh.)
- 418. Oromgoh (Nam. sh.)
- 419. Rafiq Mo'min (Nam. sh.)
- 420. Sardoba (Nam.sh.)
- 421. Sihatgoh (Nam.sh.)

- 422. Sovungarlik (Nam.sh.)
- 423. Sohibkor (Nam. sh.)
- 424. Sumalak guzari (Nam.sh.)
- 425. Surnaychi (Nam.sh.)
- 426. So'fizoda (Nam.sh.)
- 427. Umid (Nam.sh.)
- 428. Uchyog'och (Nam.sh.)
- 429. Fazliy (Nam.sh.)
- 430. Xalqlar do'stligi (Nam.sh.)
- 431. Chinor (Nam.sh.)
- 432. Sharshara (Nam.sh.)
- 433. Yakkasada (Nam.sh.)
- 434. Chorsu (Nam.sh.)
- 435. Sharq tongi (Nam.sh)
- 436. Yangi rivojiya (Nam.sh.)
- 437. Yangiyo'l (Nam. sh.)
- 438. Yangiqurilish (Nam.sh.)
- 439. Yangitong (Nam.sh.)
- 440. O'zbekiston (Nam.sh.)
- 441. Qadamjoy (Nam.sh.)
- 442. Qamishshox (Nam.sh.)
- 443. G'uncha (Nam.sh.)
- 444. Hasanobod (Nam.sh.)
- 445. Haqiqat (Nam.sh.)
- 446. Hasti Xizir (Nam.sh.)

AXBOROTCHILAR

1. **Abdullaev Obitxon**, 50 yoshda, oliy ma'lumotli, avtomobil o'quv-ishlab chiqarish kombinati o'qituvchisi.
2. **Abdullaev Ne'matjon**, 60 yoshda, pensioner, oliy ma'lumotli, Namangan shahridagi 3-maktabda mehnat ta'limi fani o'qituvchisi bo'lib ishlagan.
3. **Mamadjanov Raufjon**, 85 yoshda, pensioner, oliy ma'lumotli, Namangan shahridagi 25-maktabda o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi bo'lib ishlagan.
4. **Mamadjanova Malika**, 56 yoshda, pensioner, oliy ma'lumotli, Namangan shahridagi 3-maktabda boshlang'ich ta'lim yo'nalishida ishlagan.
5. **Nu'monov Tursunboy**, 85 yoshda, oliy ma'lumotli, filologiya fanlari nomzodi, NamDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi. "G'irvonnom" (Namangan viloyati Namangan tumani G'irvon qishlog'i tarixi) kitobining muallifi.
6. **Rahimov Nurmuhammad**, 52 yoshda, oliy ma'lumotli, fizika-matematika fani o'qituvchisi, hozirda Namangan shahridagi 19-maktab direktori.
7. **Yo'ldoshxo'jaev Hoshimxon**, 86 yoshda, pensioner, oliy ma'lumotli, Namangan shahridagi 27-maktabda o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi bo'lib ishlagan.
8. **Rafiqova Zulfiya**, 68 yoshda, pensioner, Namangan shahridagi 12-maktabda o'zbek tili va o'qituvchisi bo'lib ishlagan.
9. **Ne'matullaeva Feruza**, 43 yoshda, o'rta maxsus ma'lumotli, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi hamshirasi.

